



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

|| 2021, № 1

DJURAYEV Risbay Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina
boshlangan.
O'z MAAidan 2007 yil 3-yanvar-
da № 0101-tartib raqami bilan
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan
maqolalardan iqtibos keltiril-
ganda «Uzluksiz ta'lif»
jurnalidan olinganligi ko'rsa-
tilishi lozim.

Tahrir hay'ati:

Sherzod	SHERMATOV
Uzoqboy	BEGIMQULOV
Alisher	UMAROV
Nargiza	RAXMANQULOVA
Xolboy	IBRAGIMOV
Shavkat	QURBONOV
Roxatoy	SAFAROVA
Islom	ZOKIROV
Dono	G'ANIYEVA
Lobar	QARAXANOVA
Dusmurod	DJURAYEV

Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,
Furqat ko'chasi,
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34

(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim_jurnal@mail.ru
liya_2305@mail.ru

TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

- 3 **M.N.Ibodova**
Uzluksiz ta'limgizda o'quvchi va talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish usullari
- 8 **D.X.Narzikulova**
O'ilaviy tarbiyaning uzluksizlik omili
- 12 **Sh.T.Yakubjonova, H.N.Haydarova, O.U.Abdimurotov**
Ta'limgizda uzluksiz ekologik ta'limgizni rivojlantirish masalalari
- 16 **D.Miralieva, Sh.Yuldasheva**
Uzluksiz ta'limgizda o'quvchi yoshlar ongida "ommaviy madaniyan"ning ruhiy ta'sir vositalaridan himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish
- 21 **G.M.Musaxanova**
Uzluksiz ta'limgizda bolalarni sport bilan shug'ullanish motivatsiyasi
- 30 **A.T.Turganova**
Uzluksiz ta'limgizda keksa avlod hamkorligining tutgan o'rni
- 35 **P.X.Джусраев**
Создание сетевых проектов в непрерывном образовании
- 40 **A.X.Makhmudov**
Диагностические аспекты непрерывного развития познавательных способностей детей через шахматы
- 44 **C.Pirhamov**
Направленность личности к непрерывному образованию на основе инновационных технологий

UZLIKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MEDIATA'LIM: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

- 49 **Sh.Xasanova**
Darsdan tashqari ishlarini tashkil etish – o'quvchi-yoshlar kompetentligini shakllantirish omili sifatida
- 54 **D.A.Madjidova**
Masofaviy o'qitishda ta'limgizda oluvchilar bilimini masofadan nazorat qilish va baholash tizimi
- 59 **J.L.Karaqasheva**
Методические основы использования электронных образовательных ресурсов в обучении биологии
- 64 **R.Q.Ashurbayeva**
Uzluksiz ta'limgizda ona tili fanini o'qitish metodlari

MA'NAVY TARBIYA

- 69 **R.Musurmanov**
Oila farzand tarbiyasida klaster usulidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlar
- 74 **D.I.Xodjakulova**
Ta'limgizda o'qituvchining o'quvchi yoshlar bilan muomala odobi va muloqatni tashkil etish texnikasi
- 78 **Z.Pilibayeva**
Uzluksiz ta'limgizda sog'lom turmush tarzi va unda oila hamkorligi
- 83 **D.Elmurotova**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ekskursiya darslari orqali tabiatni e'zozlahshga o'rgatish
- 87 **B.Jo'raev**
Harbiy ta'limgizda barqaror oila munosabatini shakllantirishning pedagogik asoslari

KASBGA YO'NALТИРISH VA PSIXOLOGIK XIZMAT

- 90 **H.Файзуллаева**
Педагогические условия формирования компетентности у будущих специалистов в сфере туризма в непрерывном образовании

ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎҚИТИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ – ДАВР ТАЛАБИ

- 95 **Z.K.Narkuzieva**
Uzluksiz ta'limgizda CLIL g'oyalariga asoslangan xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy xususiyatlari
- 99 **G.Arizova**
Uzluksiz ta'limgizda ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashrishning ilmiy-nazariy asoslari

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O'QUVCHI VA TALABALARING
MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH USULLARI**

M.N.IBODOVA,
Navoiy DPI o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

Ushbu maqolada o'quvchi va talabalarning uzluksiz ta'lismizda mustaqil ishlarini tashkil etishusullarining innovatsion texnologiyalarga muvofiglashedirilgan, intellektual ta'lim tizimi imkoniyatlaridan keng miyosda foydalanish kabi dolzarb muammolariga doir fikrlar bayon qilingan. Mazzur mustaqil ishlarni tashkil etish bevosita biologiya fanlari, jumladan botanika darslarida foydalanish asosida muhokama etilgan.

Kalitso'zlar: darslik, produktiv, reproduktiv, ijodiy, metodik qo'llanma, multimedia, elektron ta'lim resurslari.

В данной статье рассматриваются актуальные вопросы, такие как адаптация методов студенческой организации самостоятельной работы на уроках ботаники к инновационным технологиям, более широкое использование возможностей системы интеллектуального образования.

Ключевые слова: учебник, продуктивное, репродуктивное, креативное, методическое пособие, мультимедиа, электронные учебные ресурсы.

This article examines topical issues, such as the adaptation of the methods of student organization of independent work in botany lessons to innovative technologies, the wider use of the capabilities of the intellectual education system.

Key words: textbook, productive, reproductive, creative, teaching aid, multimedia, electronic educational resources.

Oliy ta'lom tizimining o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri bo'lajak kasb egalarini o'z-o'zini rivojlantrish, mustaqil bilim olish darajasini orttirishga moyilligini kuchaytirish va innovatsion faoliyatni amalga oshirishga qodir bo'lgan ijodiy shaxslarni shakllantirishdan iborat. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun talabalarni ijodiy izlanishga, mustaqil faoliyat yuritishga undash, bilimlarini ularni o'zlashtirish jarayoni iste'molchisiga aylantirib qo'ymasdan, balki uning faol ijodkoriga aylantirish zarur. Hozirgi globallashuv davri talabalar tomonidan yangi ma'lumotlarni egallash mustaqil ish va ta'limga tashkil etish metodikasini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu ma'noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lom jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Mustaqil ishlarni muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, o'quv topshiriqlarning echimini topish, o'zlashtirilgan bilimlarini mustahkamlash, ko'nikma, malakalarni takomillashtirish, kompetensiyalarini



shakllantirish amaliy-laboratoriya mazmundagi kabi mashqlarni qamrab oladi. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi jihatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: talabalarning aqliy, irodaviy va jismoniy kuchlarini talab etuvchi ishlar; bilish yoki amaliy vazifalar xarakteridagi ishlar; muammoli vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi ishlar; qo'yilgan bilish va amaliy xarakterdagi vazifalar echimini topishda ijodiy yondashuvni talab etuvchi mustaqil ishlar; o'z faoliyatini rejalashtirish, uni ilmiy tashkil etish, boshqalarning yordamisiz vazifalarini bajarish, ish natijalarini maqsadga qiyoslab baholashni ko'zda tutuvchi ishlar; muntazam ravishda ishning borishi, natijalarni nazorat qilish, kerakli hollarda o'zgartirishlar kiritish va amalga oshirishni takomillashtirib borishni ko'zda tutuvchi ishlar; qo'yilgan vazifalarini to'laqonli bajarishga kirishish, bu o'z navbatida o'quvchini shaxsini yaxlit rivojlantirishga imkon berib, aqliy va amaliy faoliyat usullari, o'z ustida ishlashi va ijodkorlikning shakllanishiga yordam beradi. Ko'rinish turibdiki, mustaqil ishlar shunchaki bajarilishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Har bir mustaqil ishda ma'lum bir muammoni hal etish talab etiladi. Buning uchun o'quvchi mustaqil fikr yurita olishi muhim. Bu jarayon muammoli vaziyat vujudga kelishidan boshlanadi. Eng muhimi, mustaqil ishni bajarish tufayli talabalarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmasi hosil bo'ladi. Bunday o'quvchilar nostandard yoki kutilmagan vaziyatlarda tezkor, aniq va to'g'ri qaror qabul qilishga asos hisoblanadigan izlanuvchan ijodiy faoliyatni ta'minlovchi jihatlarga ega bo'ladi .

Mustaqil ishlarni bajarishni faollashtiruvchi ta'limiylar quyidagilar:

- mustaqil ishlarni bajarishga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishi;
- talabalarning ijodiy faoliyatdagi ishtirokining o'sishi.
- ko'rik-tanlovlardaga, fan olimpiadalardanaishtiroketishi;
- ma'lum vaziyatlarda talabalar o'rtasidagi musobaqalashish jarayonining vujudga kelishi.

Mustaqil ish metodlari guruhiga darslik, qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rgazma vositalari, masala va mashqlar echish, tajriba qo'yishkabilar kiradi. Mustaqil ishslash metodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri talabalarning o'quv topshiriqlarini o'qituvchining bevosita boshqaruvisiz bajarishidir. Mustaqil ishslash metodida talabalarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish nazarda tutiladi. Mazkur metoddha darslik, qo'shimcha o'quv adabiyotlari, ko'rgazma vositalari ustida mustaqil o'tkazilgan kuzatish va tajriba natijalari, masala va mashqlar ishslash bilim manbai sanaladi.



Barcha metodlar kabi mustaqil ishlash metodining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifasi mavjud.

Ta’limiy vazifasi sifatida – talabalarning bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallashlari, bilimlarni chuqurlashtirish, mustahkamlash va takrorlashni ta’minalashini qayd etish mumkin. Ular talabalarning amaliy o‘quv ko‘nikmalari va malakalarni yaxshi o‘zlashtirishlarida ayniqsa qimmatga ega, chunki mustaqil harakatsiz ko‘nikmalarni avtomatlashgan va ijodiy xarakterdagi malaka darajasiga ko‘tarib bo‘lmaydi.

Tarbiyaviy yo‘nalishdagi vazifasi talabalarning mustaqillik, bilish faolligi, ma’naviyat, faol hayotiy pozitsiyani egallash, mehnatsevarlik va insoniy fazilatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Rivojlantiruvchi yo‘nalishdagi vazifasi – talabalarning ilmiy dunyoqarashi, tafakkuri, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi, irodani chiniqtiradi.

Mustaqil ishlash metodlari tarkibiga mustaqil ish topshiriqlarini berish, o‘quv faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish, o‘quv mehnati malakalarini tarkib toptirish, namunaga muvoofiq mustaqil ishlarni tashkil etish, ijodiy topshiriqlar berish uslublari kiradi.

O‘qitishda talabalarning faoliyatini rag‘batlantirish va asoslash metodlari guruhi ta’lim jarayonida pedagogik rag‘batlantirish orqali talabalarning yangi o‘quv materialini egallashlarida ishtiyoq va faollikni ta’minlovchi ijobjiy asoslanishlarni vujudga keltiradi. Mazkur metodlar talabalarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, aqliy faolliklari, yangi bilimlarni egallahsga bo‘lgan ehtiyojlar, muloqot madaniyati, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish, baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi. SHuningdek, ta’limning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, talabalarda ongli intizom, burch va ma’suliyatni tarkib toptiradi.

O‘qishga bo‘lgan qiziqishni orttirish, didaktik-o‘yin, o‘quv munozaralari, o‘quvcilarning tahsil olishdagi burch va ma’suliyatini shakllantirish metodlari mansub bo‘lib, ular quyidagi:

a) o‘qishga bo‘lgan qiziqishni orttirish metodlari talabalarda ijobjiy hissiyotni vujudga keltirish, qiziqarli analogiyalardan foydalanish, taajjublanish effekti, bilish quvonchini vujudga keltirish, talabalarni rag‘batlantirish va tanbeh berish uslubi.

b) didaktik-o‘yin metodi o‘yin syujetini tanlash, o‘yin vaziyatlarini vujudga keltirish, o‘quv-bilishga oid o‘yinlarni tanlash, talabalarni rag‘batlantirish uslubi.

v) o‘quv munozaralari metodi o‘quv baxslarini keltirib chiqaradigan vaziyatni



yaratish, ilmiy baxslarni vujudga keltirish. Talabalarni muvaffaqiyatlarga yo'llash, talabalar fikrini bayon qilishi, ular javobidagi xatolarni to'g'rilash, talabalarni rag'batlantirish uslubi.

d)talabalarning tahsil olishdagi burch va ma'suliyatini shakllantirish metodi ta'lif-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushuntirish, o'quv talablarini qo'yish, o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish kabi uslublarni mujassamlashtiradi.

Botanikadan talabalarning mustaqil ishlarini axborot resurslari vositasida takomillashtirish axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish, elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlay olish, topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish ko'nikmalarini egallashlariga ko'maklashadi. Natijada, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatga yo'naltiriladi va ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlanadi. Demak, mustaqil ishlash jarayoni oliy ta'lif tizimining asosiy maqsad, vazifalarini bajarishda muhim vosita hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi, raqamli ta'lif resurslarining yaratilishi botanika fanini o'qitishda talabalarlarning mustaqil ishini tashkil etishga o'ziga xos vazifalarni qo'ydi. Botanika darslarida talabalarni mustaqil ta'lif olishga yo'naltirishda mustaqil ishlarini tashkil etish muhim o'rinn tutadi.

O'qitish jarayoni talabardan faollikni talab etadi. O'qituvchi talabalarni o'quv jarayonida mustaqil ta'lif olishga yo'naltirishi, aniq bilimlarni berishi va o'zlashtirish jarayonini nazorat qilishi lozim. Ma'lumotni kamroq berib, o'quv mehnati ko'nikmalarini ishlab chiqishga yordam berishi, egallangan bilimlardan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishi zarur.

Botanikani o'qitishda bir qancha faol usul va shakllardan foydalaniladi. SHunday usullardan biri, turli mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqish va o'tkazish orqali talabalar bilish faoliyatini faollashtirishdan iborat. Zamонави darsda bu alohida o'rinn egallaydi, chunki, talaba bilimini faqat mustaqil faoliyat jarayonida oladi. Darslikdan olingan va talabalar ob'ekt-sub'ekt munosabatlarda tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning faol harakati va bilishga motivatsiyasini ortishi orqali qabul qilishini muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarrning o'z shaxsiy mehnati bilan faol egallangan bilim xotirada uzoq saqlanadi

Axborot resurslari vositasida talabalar mustaqil ishlarni tashkil etishda ijodiy faoliyat sharoitlarini yaratish zarur. Mustaqil ishlarni o'qitish shakllari bilan bog'liq holda turli usullarda tashkil etish mumkin. Mustaqil ish topshiriqlari bevosita dars jarayoni uchun, sinfdan tashqari mashg'ulotlar yoki mustaqil ta'lif olish



maqsadida tashkillashtiriladi. Mustaqil ishlar turli usullarda amalga oshiriladi: mavzu mazmuni bilan bog‘liq elektron shakldagi didaktik topshiriqlar, savolga javob izlash, qo‘sishma adabiyotlarni o‘qish, asosiy, zaruriy ma’lumotlarni ajratib olish, tabiat hodisalarini tushuntirish, izohlash, fikr va izlanishlar olib borish, g‘oyalarni yaratish, natijada bilimlarni puxta egallahsga o‘rgatadi.

Mustaqil ishlar o‘qitishning eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, ularni bajarish jarayonida talaba olgan bilim chuqurlashadi, uning individual faoliigi oshadi.

Xulosa qilganda botanika darslarida mustaqil ishlarini o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari bilan birga axborot texnologiyalari resurslaridan foydalanib tashkil etish, bugungi kunda fan-texnika taraqqiyoti talablari darajasida kasbiy faoliyatga yo‘naltirish omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Xo‘jaev N., Hasanboev J., Mamajonov I., Musaxonova G. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.:TDIU. -2007.71-74
2. Xoshimova M.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. (Ma’ruzalar matni). T.:TDIU. - 2012. - 50 bet.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, 2000.
4. Golish L.V. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. M. 1999.
5. Yo‘ldoshev J., Xasanov S. Pedagogik texnologiyalar. T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.
6. Ishmuhammmmedov R. Ta’limda innovasiya. -Toshkent: «Fan». 2010.
7. Ishmuhammmmedov R. Tarbiyada innovasion texnologiyalar. -Toshkent: «Fan». 2010.
8. Tolipov O‘.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – T.: “Fan vatexnologiya”. 2006.
9. Saidaxmedov N., Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi – T.: XTB RTM, 1999.
10. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T.: O‘qituvchi, 2004.



OILAVIY TARBIYANING UZLUKSIZLIK OMILI

D.X.NARZIKULOVA,
NavDPI dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Mazkur maqolada oilaviy tarbiyaning uzluksizlik oimli, oilaviy tarbiyani samarali tashkil etishda qaratilgan ma'naviy qarashlar, farzand tarbiyasida muhim maktab, oila va jamoachillik birgalikdagi faoliyatni yuzasidan bayon etilgan.

Kalit so‘z: oilaviy tarbiya, jamiyat, ijtimoiy muhit, uzluksizlik oimli, farzand tarbiyasi, mehnatsevarlik, aql-zakovat, muomala, qat'iyatligi,

This article describes the factors of continuity of family education, spiritual views aimed at the effective organization of family education, and the joint activities of the school, family and community that are important in the education of children.

Key word: family education, society, social environment, continuity factor, parenting, hard work, intelligence, attitude, perseverance.

В данной статье изложены факторы преемственности семейного воспитания, духовные взгляды, направленные на эффективную организацию семейного воспитания, важную в воспитании детей совместную деятельность школы, семьи и общины.

Ключевые слова: семейное воспитание, общество, социальная среда, фактор преемственности, воспитание детей, трудолюбие, интеллект, отношение, настойчивость.

Oila, farzand kabi tushunchalar jamiyat asosi va har bir odam hayotining mazmuni hisoblanadi. Shu bois xalqimiz azal-azaldan oilani muqaddas bilib, unda sog'lom muhit qaror topishi va mustahkam bo'lishiga alohida e'tibor qaratib, e'zozlab kelgan. Zero, oilaviy tarbiya masalasi barcha zamonlarda ham nihoyatda muhim omil hisoblanib kelgingan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qaerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimming munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman»-deb aytadi.

Bugungi kunda biz hech kimdan kam bo'lmaydigan demokratik davlat, xalqimiz uchun ozod va farovon hayot qurish maqsadlari bilan yashar ekanniz, oila institutini yanada mustahkamlash, bu borada olib borayotgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish alohida ahamiyat kasb etadi,



Prezidentimizning yuqorida keltirilgan so‘zlari negizida juda katta ma’nomohiyat bor. Chunki oila sog‘lom ekan – jamiyat va bolalar tarbiyasi mustahkam. Tarbiya mustahkam ekan, mamlakat barqaror. Bu isbotsiz qabul qilinadigan aksiomadir.

Shubhasiz farzand dunyoga kelar ekan, oila mustahkamlanadi. Farzandning sihat-salomat kamol topishi ota-onaya hayotining eng asosiy mazmuniga aylanadi. Xususan, Prezidentimizning 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash” va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2018 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida nazarda tutilgan asosiy masala jamiyatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini va nufuzini yuksaltirish, qonuniy huquq va manfaatlarini samarali himoyalash hamda onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oilalar mustahkamligini ta‘minlash orqali har bir insonning baxtli hayot kechirishini ta‘minlashga qaratilgan.Biroq, afsuski, hech narsaga qaramay ajrashishni maqsad qilgan er va xotinlar yo‘q emas. Quyida ajrimlar, ularning sabablarini tahlil qilish jarayonida aniqlangan holatlarga to‘xtalib o‘tamiz.

Ko‘p hollarda azaliv qadriyatlarni unutish, oilada er-xotin o‘rtasida munosabatlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi oilaviy ajrimlarga sabab bo‘lmoqda. Xususan, farzandlarini birga tarbiyalab, risoladagidek yashab kelayotgan er yoki xotindan birining o‘ylamay gapirgan bir og‘iz so‘zi va ikkinchi tomonning jahli ustida qaytargan javobi oxir-oqibat oilaning buzilishiga olib kelmoqda. Bu esa farzandlarning yo ota, yo ona mehridan, tarbiyasidan mosuvo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda.Oilada farzand tarbiyasida sinalgan tarbiya metodlaridan biri – namunadir. Bobo, buvi, ota-onaya, bola atrofидagi katta yoshdagи kishilarning xatti-harakatlari, yurish-turishlari, muomalasi, o‘zlarini tutishlari, tarbiyaga munosabatlari namuna sifatida juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bolaga aqliy, ahloqiy, estetik, mehnat tarbiyasi asoslari ota-onaya namunasi asosida singdirib boriladi.

Ota-onaya farzand oldida o‘z aql-zakovati, muomalasi, kiyinishi, qat’iyatligi, mehnatsevarligi, oila yuritishda adolatparvarligi bilan namuna bo‘lmog‘i zarur. Bola xarakteriga ota-onaning o‘zaro janjallari, oilaga, jamiyatga, atrof-muhitga salbiy munosabati, yolg‘on so‘zlashi, qat’iyatsizligi, kiyinishida, ro‘zg‘or yuritishidagi pala-partishligi, mehnatni sevmasligi tezda o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Ota-onaning bir-biriga nisbatan yuksak ahloqiy munosabatini ko‘rgan bola



kelgusida oila qurganda o‘z turmush o‘rtog‘i bilan shunday yashashga tayyor bo‘lib boradi. Hayot ilmida ona qiz bola uchun, ota esa o‘g‘il bola uchun ustoz, murabbiyidir. Dono xalqimizda “Onasini ko‘rib qizini ol, raxini ko‘rib bo‘zini ol” deb bejiz aytilmagan.

Oila tarbiyasida uzluksizlik oimli– tarbiyaonaning kornidan boshlab oila, ta’lim muassasalarini ya’ni maktabgacha ta’lim tashkiloti, maktab, o‘rta maxsus kasb hunar kollejlari, oliy ta’lim, jamoachillik, mahala va hokazolarning muvafaqqiyatlari mehnatlarning samarali tashkil etishdan iborat.

Shu o‘rinda N.K.Krupskaya muktab, oila va jamoachillik birgalikda ish olib borgandagina yosh avlodni tarbiyalashda muvafaqqiyatga erishish mumkin deb hisoblaydi. Yoshlar shaxsini tarkib toptirishdan barcha tarbiyalovchi kuchlar uzluksizlikda ish olib borilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd qilib, bolani faqat ayrim kishilarga tarbiyalab qolmaydi, balki oilaviy ta’lim va butun muktab jarayoni tarbiyalaydi, ko‘cha kuy tarbiyalaydi, ta’lim muaassasalarini, butun tevarak-atrofdagi sharoit, butun ijtimoiy tuzum tarbiyalaydi, jamiyatdagi voqeasi va hodisalar tarbiyalaydi.

Oilada bola tarbyasining uzluksiz muhim tamoiyllaridan qo‘yidagilarni keltiramiz:

- oilada tarbiyaning ilmiy merosga asoslanganligi;
- oilada tarbiyaning xayotiy tajribaga asoslanganligi;
- oilaviy tarbiyada bo‘sh vaqlarni samarali tashkil etish asoslari;
- oila tarbiyasida mehnatsevarlikni tashkil etish yo‘llari;
- oilada bolalarni xushmuomala qilib tarbiyalash;
- oilada yaxshi fazilatlarni vujudga keltirish;
- oilava bolani halollikka tarbiyalashning muhim vositalari va h.k.

Ba’zi oilalarda bolalarni tarbiyalash ishining hammasi onaga yuklab qo‘yiladi, ota esa bu muhim vazifalarga kam e’tibor beradi. Bola tarbiyasiga yondashish, otaning o‘z farzandini tarbiyalash ishidan chetda turishi bu katta xatodir.

Oila tarbiyasi asosan ota-onalar va oilanang yoshi katta a‘zolari tomonidan amalga oshiriladi. Oila tarbiyasida muvaffaqiyatga erishish ko‘p jihatdan oilada ham ota, ham onaning bo‘lishi, ularning birdamlik va tenglikka erishishi, kuchg‘ayratlarini birlashtirishiga bog‘liqdir.

Ota-onasi o‘rtasidagi o‘zaro totuvlik va hurmat farzandlarga munosabat yanada mustahkamlanib, oilaviy munosabatlarda mehr-muruvvatning yangi-yangi xususiyatlarini ochishga xizmat qiladi. Biroq, hayot g‘oyat murakkab bo‘lib,



ota-onा va farzandlar munosabati har doim ham bir maromda, bir tekis davом etavermaydi. Xuddi jamiyatning o‘zi kabi, oilaviy munosabatlarda ham ba’zan yuksalish va inqirozlar, anglashilmovchiliklar, adashishlar sodir bo‘lishi, o‘zarо muloqotlarda kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Biroq, kishi organizmida bosh ko‘targan kasallik alomatlariga javoban organizm immunitetlari qarshi turgani singari, ahil oila o‘z ichida chiqayotgan nizo-yu, janjallarni o‘zi bartaraf eta oladi. Odатда bunday hollarda mehr-oqibat, birodarlik va qondoshlik tuyg‘usi ustuvor kelib, nizolar elga oshkor etilmaydi, mahalla-ko‘y oldidagi uyat, andisha hissi ustunlik qiladi. Ota-onа hech qachon farzandlarini yomon demaydi. Sharq oilalariga xos tipik xislatlardan biri shuki, farzandlar ba’zan noqobil chiqib qolgan taqdirda ham, farzandini qarg‘amaydi, uni beixtiyor himoya qilishga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умум инсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни. Тошкент. 2016
2. Примова Ф.А. Оилавий муносабатларни шакллантиришда миллий ва диний қадрияларнинг ўрни. Автореф.фалс.фан.номзоди. – Т: 1999.
3. Сайдалиева Н.З. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фалсафа фан. ном. дисс. Автореф. – Т.: ЎзМУ, 2005, – 26 б.
4. <http://www.adolatnashr.uz/uploads/17.Oila%20%E-2%80%93%20-monografiya%202016.pdf>
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/07/25/prezident/>



TA'LIM TIZIMIDA UZLUKSIZ EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**SH.T.YAKUBJONOVA,
TDPU dotsent v.b., g.f.f.d (PhD),**

H.N.HAYDAROVA,

ToshDAU dotsenti, b.f.n.,

O.U.ABDIMUROTOV,

Toshkent viloyati CHDPI o'qituvchisi

Maqolada mamlakatimizda uzluksiz ekologik ta'limi rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, uzluksiz ekologik ta'limga qo'yiladigan talablar, ta'lim bosqichlarida ekologiya va tabiatni muhofaza qilishning o'rni va ahamiyatiga oid masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya, tabiatni muhofaza qilish, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ekologik ta'lim, dastur, o'quv reja, oliy ta'lim, o'rta maxsus ta'lim.

В статье раскрывается цель, задачи, развития непрерывного экологического образования в нашей стране, требования, поставленные непрерывному экологическому образованию, задачи, относящиеся роли и значению экологии и охраны природы на образовательных этапах.

Ключевые слова: экология, охрана природы, образование, воспитание, непрерывное экологическое образование, программа, учебный план, высшее образование, среднее специализированное образование.

The article reveals the goal, objectives, development of continuous environmental education in our country, the requirements set for continuous environmental education, tasks related to the role and importance of ecology and nature protection at the educational stages.

Key words: ecology, nature protection, education, upbringing, continuous environmental education, program, curriculum, higher education, secondary specialized education.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan beri ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, ushbu muammolar umumijtimoiy masalalarning ajralmas qismi ekanligini e'tirof etgan holda, keng jamoatchilik oldidagi hal etilishi zarur bo'lgan vazifalardan hissoblanadi. Bu borada bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardan biri va asosiysi ta'lim-tarbiya bo'lib, sog'lom avlod tarbiyasida muhim o'rinn tutadi.

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish masalalarini echimi bevosita ekologiyaga oid fanlarning ta'lim muassasalarida o'qitilishi va uning uzviylik va uzluksizligini ta'minlashga bog'liq. Respublikamizning o'zida barcha yosh davrlarini qamrab olgan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan talab va undan kelib chiqadigan vazifalar yil sayin dolzarblik kasb etmoqda. Bu vazifalarni amalga



oshirish uzluksiz ekologik ta’limning maqsadini aniqlab olish, vazifalarni belgilash va unga quyiladigan talablarga rioya etishni taqozo qiladi.

Uzluksiz ekologik ta’limning **maqsadi** o‘z ichiga qo‘yidagi masalalarni qamrab oladi:

1. Tabiat bilan inson tizimida ularning o‘zaro aloqa munosabatlari. Inson tabiatning mahsuli ekanligi va uning ustidan hukmronlik qilmasligi.

2. Tabiatning tarkibiy qismi sifatida hissiy, javobgarlik, tabiatga nisbatan muhabbat, tejamkorlik va insonga nisbatan ekologik qadriyatlar tizimini shakllantirish.

3. Tabiat va insomning jismonan va ruhan salomatligini muhofaza qilishga hamda saqlashga qaratilgan faoliyatini, qayta tiklash kabilarni shakllantirish. «Global darajada fikr qil», «Mahalliy darajada faoliyat ko‘rsat» - degan zaylda ish yuritish [1; 11-b].

Uzluksiz ekologik ta’lim o‘z oldiga quyidagi **vazifalarini** qo‘yadi:

1. *Shaxsda adekvat ekologik tasavvurlarni shakllantirish.* SHaxsnинг eng muhim ekologik tavsifi tabiat olamiga psixologik kirib borish hisoblanib, bu ekologik psixopedagogika nuqtai nazaridan shaxsda mavjud ekologik tasavvurlar tizimi darajasi bilan bog‘liq.

2. *Shaxsning tabiatgasub ’ektiv munosabati nishakllanishi.* Tabiatga sub’ektiv munosabatning xususiyati shundan iboratki, u tabiatga munosabatning jadalligi, anglashning darajasi kabi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

3. *Tabiiy ob’ektlar bilan munosabatdagi adekva strategiyalar va aniq texnologiyalarni shakllantirish.* Ekologik psixopedagogika nuqtai nazaridan shaxsning amaliy faoliyatida, tabiiy ob’ektlar bilan mavjud strategiyalar va texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali shakllanadi [1; 12-b].

O‘rtal umumta’lim mifikalari va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilariva oliy ta’lim talabalari uchunuzluksiz ekologik ta’limning asosiy **talablari**:

1. Tabiatning bir butunligi haqidagi izchil bilimlarni egallash. Tabiat qonunlari va hodisalari, tabiat, inson va jamiyatning o‘zaro bog‘lanishlarini, ekologik muammollar va ularin ihal etish yo‘llarini o‘zlashtirish.

2. Eng muhim ahloqiy-estetik va etika ham iyatga ega bo‘lgan, tabiatga nisbatan tarbiyalangan bo‘lishi, o‘quvchi o‘z faoliyatida ekologik maqsadga yo‘naltirilgan harakatlarni amalga oshirish, tabiiy atrof-muhitni tiklash va muhofaza qilishda faol harakat olib borish. Shaxs sifatida tabiatga va odamlarga nisbatan mehr-muruvvatli munosabatda bo‘lish.



3. Ekologik vaziyatlarni o‘zgarish sabablarini va ularning oqibatlarini tahlil qilaolish. Ma’naviy turmushda kelib chiqadigan ekologik muammolarni hal etishda muqobil fikrlarni topa olish[2; 17-20 betlar].

O’rta umumta’lim maktablarining 11-sinf o‘quv rejasida biologiya fani kesimida “Ekologiya asoslari va tabiatni muhofa qilish”ga 71 soat ajratilgan bo‘lib, nazariy, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya mashulotlari va ekskursiyadan iborat.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining o‘quv rejasida biologiyaga oid fanlarga umumiy miqdorda 80 soat ajratilgan bo‘lib, unda ekologik ta’lim va tarbiya masalalariga ahamiyat qaratilgan. Tabiiy fanlar chuqurlashtirilib o‘tiladigan akademik litseylarda “Ekologiya asoslari” faniga 51 soat, shundan 18 soat nazariy, 16 soat amaliy, 2 soat laboratoriya mashg‘ulotlariga va 15 soat mustaqil ta’limga ajratilgan.

Ekologik ta’lim oid fanlarning oliy ta’lim muassasalarini o‘quv rejasidagi o‘rnini quyidagilar bilan izohlash mumkin. Oliy ta’lim muassasalarida uzlusizlikni ta’minlash maqsadida ekologik ta’lim barcha yo‘nalishlar o‘quv rejasidan majburiy kurs sifatida o‘rin olgan. O‘quv rejada ko‘zda tutilgan ekologik ta’lim mazmuni namunaviy dasturda o‘z aksini topishi lozim. SHuningdek, dasturda “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fanining predmeti tarixi, ekologik ta’limning maqsadi va vazifalari, inson va tabiat orasidagi munosabatlar, ekologik inqirozlar, muhit tushunchasi, ekologik omillar, biotik munosabatlar, biologik maromlar, populyasiya, ekologik tizimlar, biosfera, noosfera tushunchasi, tabiy resurslar, atmosfera tarkibi va tuzilishi, ahamiyati. Ifloslanish manbalari, suv resurslari va ularni muhofaza qilish, tuproqni muhofaza qilish tadbirleri, hayvon va o‘simgilik dunyosini muhofaza qilish haqidagi bilimlarni berish ko‘zda tutilgan.

Tabiatni muhofaza qilish fani dasturi mazmuni asosan O‘zbekistonda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslar va ulardan oqilona foydalanish, maxsus muhofazaga olingan hududlar, davlat va nodavlat tashkilotlari olib borayotgan tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy ishlar bo‘yicha ma’lumot berishga asoslangan.

Oliy ta’lim muassasalarining nomutaxassislik yo‘nalishlari o‘quv rejasida “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fanidan 14 soat ma’ruza, 16 soat amaliy mashg‘ulotlari hamda mustaqil ta’lim uchun 30 soat ajratilgan. Mutaxassislik yo‘nalishlari o‘quv rejasida esa ushbu fan uchun 14 soat ma’ruza, 16 soat laboratoriya mashg‘ulotlari, 30 soat mustaqil ta’lim uchun ajratilgan [3; 4-5 betlar].

Shuningdek, “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish” fani dasturida tabiat, jonsiz va jonli tabiat, ekologik omillar va ularni tirik organizmlarga ta’sir etishi hamda tabiiy resurslar va ularni muhofaza qilish, shuningdek ularni kelgusi



avlodlarga etkazish masalalarini hal etishga yo‘naltirilgan.

Shu o‘rinda aytib kerakki, biologiya o‘qituvchilar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejasida ekologiyaga oid fanlarga juda kam o‘rin ajratilgan. Vaholanki, yuqorida ko‘rib o‘tilganidek o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘quv rejasida ajratilgan soatlar deyarli ikki barobarga ortiq. Binobarin bu nomuvofiqlik etuk malakali mutaxassislar tayyorlashga hamda pirovardida ta’lim sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz ta’lim tizimida uzlucksiz ekologik ta’limni rivojlantirish uchun e’tibor va sharoitlar yaratilgan. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshishi ta’limning har bir bo‘g‘inida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi-pedagoglar oldiga ulkan mas’uliyatli vazifalar yuklaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Ҳайдарова Ҳ, Баҳодирова З, Якубжонова Ш. Экология методикиси. Т: “Iqtisod-moliya”, 2009. -Б 11-13.
2. Ҳўжаназаров Ў.Э., Якубжонова Ш.Т. Экология ва табиатни муҳофаза қилиш. Т: -Б 17-20.
3. Якубжонова Ш.Т., Кучкаров Н. Ю., Турабоев А.Н., Шерназарова Б.Б. Экология ва табиатни муҳофаза қилиш. Т: “Navro‘z”, 2016. -Б4-5.



UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHI YOSHLAR ONGIDA “OMMAVIY MADANIYAT”NING RUHIY TA'SIR VOSITALARIDAN HIMOYA QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

D.MIRALIEVA,

TDIU “Innovatsion ta'lism” kafedrasiga katta o'qituvchisi,

Sh.YULDOSHEVA,

TDPU dotsenti

Mazkur maqolada “ommaviy madaniyat”ning yoshlari ongida ruhiy ta'sir vositalari va global tarmoqlar orqali namoyish qilinayotgan film va videoo'ymlarning yoshlari ongiga ta'siri va ulardan himoya qilishda kitobxonlik ko'nikmalarini shakllantirishning axamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ommaviy madaniyat, g'oya, axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, hayosizlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, g'ayriinsoniy “nikoh”lar, immunitet, egotsentrizm.

В данной статье автор рассматривает такие проблемы как негативное влияние «массовой культуры» на сознание молодого поколения через средства массовой информации и глобальные сети, которые являются средством психологического воздействия на ум молодёжи и важность развития навыков чтения в формировании сопротивления против массовой культуры.

Ключевые слова: Популярная культура, идеи безнравственности, насилие, наркомания, алкоголизм, иммунитет, эгоцентризм.

In this article, the author examines such problems as the negative impact of «mass culture» on the consciousness of the younger generation through the media and global networks, which are a means of psychological influence on the mind of young people and the importance of developing reading skills in the formation of resistance against the mass of culture.

Key words: Popular culture, ideas of immorality, violence, drug addiction, alcoholism, immunity, egocentrism.

O'zbek xalqining milliy madaniyati, qadriyatlari ezungulikni targ'ib qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u yoshlarda milliy g'urur, o'zlikni anglash, jamiyat a'zolari orasida hamjihatlik, hamkorlik, inoqlik, nekbinlikni tarbiyalashda alohida ahaniyatga ega. Shuning uchun ham respublikamizda milliy madaniyatni, qadriyatlarni rivojlantirishga, yoshlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilmoida. Bu xususda qator qaror va farmonlar qabul qilingan [1], ularning ijrosi ta'minlanmoqda. Biroq olib borilayotgan ijobjiy ishlarga qaramay ba'zi yoshlari “ommaviy madaniyat” ta'siriga tushib qolmoqdalar. Bu holat uzluksiz ta'lism tizimining har bir



bosqichida muntazam va tizimli ish olib borishni talab etadi. Jumladan, oliv ta'lim bosqichida ham. Talabalarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashuvchanlikni shakllantirish ishlarini tashkil etishda qo'yilgan maqsadga erishish uchun voqeа-hodisaning kelib chiqishini, uni rivojlantiruvchi, ta'sir etuvchi omillarini atroflicha o'rganish talab etiladi.

“Ommaviy madaniyat”ning shunday shakl va ko'rinishlari borki, ularning ta'siri natijasida kishilarda ma'naviy axloqiy illatlarning bir qator ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Jumladan: 1) axloqiy buzuqlik; 2) zo'ravonlik va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar va kompyuter o'yinlariga odatlanib qolish; 3) o'zim bo'lsam bo'ldi, o'zga bilan ishim yo'q qabilida ish tutish; 4) barcha narsalarga shaxsiy manfaat nazari bilan yondashish; 5) shaxsiy manfaatni har narsadan ustun qo'yish – bu borada hech kim bilan hisoblashmaslik, hattoki, ota-onा hurmati va fikrini ham mensimaslik; 6) o'z nafsining quliga aylanish; 7) hayosizlik, giyohvandlik, ichkilikbozlik, tubanlikka mukkasidan berilish; 8) g'ayriinsoniy “nikoh”lar kabi o'ta salbiy holatlar[3;30-b].

Jamiyatning eng muhim qatlami bo'lgan yoshlar oila va uzlusiz ta'lim muassasalarida shakllanadilar. Uzlusiz ta'lim muassasalarida tahsil ko'rayotgan yoshlar bugungi kunda o'z vaqtlarining aksariyat qismini kompyuterlar va mobil vositalar bilan muloqotga bag'ishlamoqdalar. Global tarmoqlar bo'ylab (INSTAGRAM, TELEGRAM, TWEETER) axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalari targ'ib qilinmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari “ommaviy madaniyat”ni tarqatishda, yoshlar ongiga buzg'unchi g'oyani singdirishda, ularga emotsiional ta'sir qilishda juda kuchli qurol bo'lib xizmat qiladi. Global tarmoqlar orqali namoyish qilinayotgan film va videoo'yinlar psixik jarayonlarni, taqlidni faollashtiradi. Aynan filmlar inson psixikasiga ta'sir qilishning kuchli qurol sifatida talqin etiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ba'zi chet mamlakatlardan eksport qilinayotgan filmlarda, o'zimizning ba'zi bir teleko'rsatuvlarda “Jismoniy kuch- vujudga kelgan muammoni echishning muhim uslubi”, “Hamma narsani sotib olish, sotib yuborish mumkin” kabi g'oyalalar turli syujetlar yordamida tomoshabinlar e'tiboriga havola etiladi[4;23-b]. Bu kabi g'oyalalar hali ongi to'laligicha shakllanib ulgurmagan shaxslarning ongiga ta'sir ko'rsatib ularni zaharlaydi. G'arb mamalakatining urf-odatlari, hayot tarziga qiziqish, taqlid kuchayib o'z millatining urf-odatlari, an'analariga rioya qilish susayadi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan bu holatlarning salbiyligi shundaki, vujudga kelgan muammoning “yagona echim yo'li”ning qolipi mavjudligi va uning nusxasini targ'ib etishdir. Shu tariqa ijtimoiy me'yorlar,



stereotiplar va ideallar yaratilib, og'ishli xulq namunalari "emotsional ranglar" vositasida, ya'ni psixologik ta'sir ko'rsatishni kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi, bu esa, individual va milliy qadriyatlar tizimining emirilishiga, maishiy va ijtimoiy me'yorlarning buzilishiga, individual qadriyatlar tizimining parchalanishiga, individual ma'naviyatning deformatsiyalashuviga olib keladi. Bunday vaqtida "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi.

"Ommaviy madaniyat" hozir insoniyat hayotining barcha jabhalariga tez kirib bormoqda va o'zi uchun qulay g'oyaviy-estetik makonni shakllantirmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, "ommaviy madaniyat" "yoshlar submadaniyati" industriyasi; ommaviy ijtimoiy mifologiya; odamga murakkab qadriyatlar yo'nalishi tizimini joylashtirish; dunyoni ko'p qirrali tushunishni oddiyolashtirish; hordiq industriyasi, turli shoulnarni, qiziqish va dam olishni sanoat asosiga ko'chirish; sog'lomlashtirish; madaniy, estetik ehtiyojlar qondirishni boshqarish va individual, shuningdek, jamoa foydalanadigan xizmatlar, takliflarni rag'batlantrish tizimini tashkil etish(reklama, imidjmeykerlik va hokazo), har xil o'yinlar, mexanik o'yinlardan tortib elektron, kompyuter va boshqa vositalardan foydalanish kabi yo'nalishlarga ega. U yoshlar ongi, dunyoqarashi, shuningdek salohiyatini tamoman qamrab oladigan "jozibador" niqoblar ostida ish ko'radi. Ular quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: 1. Musiqa bilan bog'liq bo'lgan musiqa fanatlari –rokerlar, panklar, gotlar, reperlar, metalliklar, trans-madaniyat. 2. Alovida dunyoqarashlari, hayat tarzları bilan ajralib turuvchi xippi, emo, panklar, rostamanlar. 3. Sport bilan bog'lik –sport fanatlari, rollerlar, strit-baykerlar, baykerlar. 4. O'yin bilan bog'liq boshqa reallikka o'tuvchi yo'nalish-geymerlar, tolkienistlar. 5. Kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalish-xakerlar, geymerlar[5;136-b].

Bugungi kunda yoshlarning axloqi va ma'naviyatiga, ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari va shakllari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Film va kliplar. P.I.Glushkoning yozishicha "televideniedagi "ommaviy madaniyat"ning 70-80% ermak, vaqt o'tkazishni nazarda tutadi. Unda bema'ni siyqa syujetlarga qurilgan seriallar, shou o'yinlar, tomoshalar va konsertlar namoyish etiladi". Bu ko'rsatuylar inson ruhiyatiga g'ayritabiiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, xorijda suratga olingan jangari kinofilmlar, turli kompyuter o'yinlaridagi shafqatsizlik, vahshiylik, qotillik aks etgan lavhalarning yoshlari tomonidan tomosha qilinishi natijasida ularning ruhiyatida keskinlik, berahmlik, shafqatsizlik, atrofdagilarga bepisandlik illatlar



kuchayadi. Eng achinarlisi yuqoridagi film va kliplarda rol o'ynayotgan aktyor va aktrisalarga talaba-yoshlarimiz ko'r-ko'rona taqlid qiladilar.

2. Bugun G'arb olamida aksariyat yoshlar ma'naviyati tanazzulga uchrayotganligi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim ommaviy axborot vositalarida tanazzulga uchrayotgan G'arb yoshlarining hayoti ibratlari turmush tarzi sifatida targ'ib qilinmoqda. SHuning uchun ham talabalarga bunday hayat tarzini tahlil qilib, uning salbiy jihatlarini ajratib ko'rsatish va unga qarshi tura olish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi yanada dolzarblashmoqda.

3. Turli mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan yoshlarni didsizlikka undovchi andozasiz kiyimlar, ularda bitilgan ma'nosiz yozuvlar, yovuzlikka chorlovchi suratlar.Ular yoshlar ongini zabit etib, ular ruhiyati va didiga ta'sir ko'rsatadi.

4. G'arb yoshlarining uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilishlari. Bunday harakatlarning kelib chiqishiga turki beradigan asosiy sabab – yoshlarga me'yordan ortiq tarzda erkinlikning berilishidir. Buning natijasida ular: “Men erkin shaxsman, bilganimni qilishim kerak, yoshligimda o'ynab qolishga haqim bor, ko'nglim tusagan ishni qilishga haqliman, o'z erkim o'z qo'llimda, hattoki ota-onam ham mening erkimni bo'g'ishga haqli emas”, - degan aqidaga o'rganadilar.

5. G'arbona turmush tarzida g'urur-iftixon, or-nomus, erkaklik sha'ni, ayollik iffati degan nozik tushunchalarning yo'qolib borayotganligi. O'zbek millatiga xos bo'lgan yuqoridagi kabi tushunchalarning yo'qolib borayotganligi oila mustahkamligi va yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Shuni alohida ta'kidlash joizki “ommaviy madaniyat”ning sport, kompyuter texnologiyalari bilan bog'liq ko'rinishlari tobora kengroq yoyilmoqda. Albatta, yoshlarimizning yangilikka intiluvchanligi, zamon bilan hamohang holda bo'lishlikka intilishlarini inobatga olsak, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanishga qiziqishlarini ma'qullash lozim. Biroq, ikkinchi tomondan yoshlarimizni ma'naviy etuk, barkamol bo'lib shakllanish jarayonida axborotlar oqiminining salbiy tomonlari borligini ham nazardan qoldirmaslik zarurdir. Salbiy tomoni, axborotning sifatsizligi va uni belgilashda yoshlarimizda ijtimoiy-psixologik xususiyatlar shakllanmaganligidir.

Yoshlar ongini zabit etayotgan “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatida ustuvor o'rinnegallamoqda. SHu maqsadda amaldagi qonunchilikka qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmoqda, yangi huquqiy me'yorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi



Prezidentining 2017 yil 12 yanvarda “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirishni oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha kommissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilindi. Bu hujjatda aholining keng qatlamini kitob o‘qishga jalb qilish, kitob o‘qish va kitobxonlikni targ‘ib etish, bolalarni bog‘cha yoshidan boshlab kitobga mehrli qilib tarbiyalash, kitob mahsulotlarining mazmuniga e’tibor berish, ularni chop etish sifatini yaxshilash, turli mazmundagi kitoblar bilan to‘ldirilgan kitob do‘konlarini ko‘paytirish, kitoblar fondini yanada boyitish ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.28.07.2017 y. NPQ-3160.
- 2.Quronov M., Jabborov H. Aholida ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta’sirchan pedagogik-psixologik tamoyillari//Psixologiya.–Buxoro, 2017. 4- son. 16- b.
- 3.Safarova R.G. R.H.Djuraeva va boshq. O‘quvchi-yoshlarni ommaviy madaniyat xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya-T.: “Tafakkur qanoti”nashriyoti-2017.- 12,9 b.t.
- 4.Sharopova S.D. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanganligining ijtimoiy-psixologik jihatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Т., 2020. 141 b.
5. Крохина Н.П. и др. Культура и межкультурные взаимодействия в современном мире: Учебное пособие с приложением (коллектив авторов). Шуя: изд-во Шуйского филиала ИвГУ, 2014. - 165 с.



UZLUKSIZ TA'LIM INTEGRATSIYASI JARAYONIDA O'QUVCHI – TALABALARDA MUSTAQIL TA'LIM KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

G.M. MUSAXANOVA,
katta o'qituvchi, TDIU

Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda uzluksiz ta'lismizni integratsiyasi va unda ta'lim olayotgan o'quvchi - talabalarning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari va ushbu sohada uchrayotgan muammolar borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: uzluksiz ta'lim, mustaqil ta'lim, ko'nikma, kompetensiya, zamonaviy yondoshuvlar.

В данной статье автор рассматривает интеграцию системы непрерывного образования на сегодня и механизмы формирования в ней самостоятельных навыков обучения студентов, а также проблемы, возникающие в этой области.

Ключевые слова: непрерывное образование, самостоятельное обучение, умение, компетентность, современные подходы.

In this article, the author examines the integration of the lifelong education system for today and the mechanisms for the formation of independent learning skills in it, as well as the problems arising in this area.

Key words: lifelong education, independent learning, skill, competence, modern approaches.

Bizga ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida o'quvchi – talabalarning mustaqil izlanish va o'rganishi uchun doimo extiyoy mayjud.

Ayniqsa, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, bugungi kun yoshlarini muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqod, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabi fazilatlarni shakllantirishda mustaqil ta'limga o'rni beqiyosdir.

Jahoning rivojlangan mamlakatlari uzluksiz ta'lim tizimida mustaqil o'rganish keng targ'ib qilinadi va bilim olishning bunday usuli ish jarayoni va kasbiy mahoratning mutazam ravishda takomillashuviga olib keladi. Umuman olganda mustaqil o'rganishning ahamiyati juda katta bo'lib, u iqtisodiy ravnaq topishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi va mamlakatning jahon bozorida yanada raqobatbardosh bo'lishiga xizmat qiladi.



Ta’lim jarayonining asosini tashkil etuvchi umumiy o’rta ta’lim tizimida o‘quvchilarni muntazam va tizimli bilimlar olishlarini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlashlarini shakllantirishni, o‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida kamol topishlarini, ularning qiziqishlari va ijodiy qobiliyatlarining rivojlantirishni ta’minlaydi. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda fan yoki mavzuning mazmuni birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, o‘quv materialining tuzilishi va uni bayon etish uslubi ham katta ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan o‘quvchilarni faqatgina yangi ma’lumotlar bilan tanishtirish emas, balki o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asosiy masala sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, hozirgi zamon talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlash uzlusiz ta’lim muassasaları oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Yoshlarga ta’lim va tarbiya berishning murakkab vazifalarini hal etish o‘qituvchilarning g‘oyaviy e’tiqodiga, kasb mahoratiga, iste’dodi va madaniyatiga, hozirgi zamon pedagogik va axborot texnologiyalarni qo’llashi, o‘quvchi -talabalarni o‘zaro faollikka olib kelishiga bog‘liqdir. O‘quvchi -talabalarning o‘zlashtirishida mustaqil o‘quv faoliyati asosiy rol o‘ynaydi. Uzlusiz ta’lim jarayonida o‘quvchi - talabalar o‘zining mustaqil o‘quv faoliyatida o‘quv mashg‘ulotlaridan olgan bilimlarini mustahkamlaydi, kengaytiradi, chuqurlashadiradi, tushunchalar yoki ularning xossalarni umumlashtiradi yoki xususiylashtiradi, olingan bilimlarini amaliyotda muammolarni echishda qo’llaydi, qo‘yilgan muammoni hal qilish yo’llarini mustaqil izlaydi va echish usullaridan eng maqbulini, samaralisimi tanlaydi, kelgusi o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘radi.

Ta’lim sohasidagi ulkan islohotlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida» 2020 yil 2 martdagи PF-5953-son Farmoniga muvofiq yoshlarning kasblari va mutaxassisliklarni egallahsga bo‘lgan qiziqishlarini qo’llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibini belgilash borasidagi ulkan vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan.



Sirtqi ta'limda o'qish muddatlarini belgilashda kunduzgi ta'lim shaklidagi tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha jami o'quv yuklamaning kamida 30 foiz miqdoridagi soatlar hajmini bevosita professional ta'lim muassasasida o'qitish va qolgan qismini mustaqil ta'lim shaklida o'zlashtirish hisobga olinadi. Demak, ushbu fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, uzuksiz ta'limning ma'lum bir vaqt oqsab qolgan bo'g'ini professional ta'lim tizimida ham mustaqil ta'limning ulushini rivojlantirishga ahamiyat qaratilishi desak mubolag'a bo'lmaydi.

The article examines the education system, in which effective methods of organizing the educational process are based on the integration of the native language and the visual arts.

Key words: *education system, native language, communication, education, teacher, thinking, visual arts, painting, exercises, integrative.*

Ta'lif tizimi bu (maktab, universitet, maktabgacha ta'lif muassasaları, qo'shimcha ta'lif, kollejlär va boshqalar) tuzilmalarını birlashtırgan model bo'lib, uning asosiy maqsadi ularda o'quvchilarını tarbiyalashdir[4]. Yillar davomida taraqqiyotning pag'onaga ko'tarilgan har bir davrida bu tizimiga yangicha yondashuv, yangicha qarash, yangicha izlanishlar talab qilingan. O'sib kelayotgan yosh avlod uzlusiz ta'lifning har bir tizimida "toblanib", yuksak taraqqiy etgan, davr talabiga har tomonlama javob bera oladigan, yetuk salohiyatlì kadr bo'lib yetishishi lozim. Bunda esa ta'lif tizimlerining vobastaligi, integratsiya qonuniyatlarining amalda tadbig'i bo'lishi kerak. Aks holda, tizimler vobastaligidan uzilgan zanjir va ta'lif tizimida yetarlichka ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan kadr jamiyatda o'z o'rnini topa olmay, muammolarga duch kelishi shubhasiz. Bu muammolar esa o'z navbatida jamiyat va davlatning rivojlanishida sezilarli darajada to'sqinlik qila oladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lif tizimining har bir jabhasida faoliyat yurituvchi pedagog ta'lif tizmini rivojlantirish, innovatsion g'oya va



texnologiyalarni joriy qilishni o‘zi uchun dasturulamal qilmog‘i lozim.

O‘zbekiston ta’lim tizimi tarixiga nazar solar ekanmiz, bu borada ko‘pgina ma‘rifatparvar shaxslarning yetarlicha fikrlari va tajribalarini va ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan harakatlarini ko‘ra olamiz. Jumladan, yangi usul - “jadidchilik” g‘oyalari asosida ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan ko‘pgina qarashlar dolzarbliqi bilan bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ta’lim tizimi jarayonida ota-onaning ham alohida roli borligini uqtirgan holda, jadidchilik harakatining buyuk namoyandalaridan biri A.Fitrat shunday fikrlarini bayon qiladi: *“Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Yosh avlodni tarbiyalash hayotiy vazifalardan bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, dunyo kurashning umumiyligi maydoniga o‘xshaydi va bu maydonning pahlavonlari insonlardir. Har bir kishi barkamollik yoshiga yetgach, u o‘z saodati ta’mini uchun shu maydonga kirmasdan iloji yo‘qdir. Bu kurashda g‘olib chiqish uchun uch xil o‘lchov quroli (salohi masseh)ga ega bo‘lish kerak. 1. Salomatlik; 2.Sog‘lom fikr (nuqson siz fikr, ya’ni yuqori iste’dod); 3. Axloqi sano (oliy darajali axloq, ya’ni axloqi poklik)”* [5]. Salomatlikni saqlash uchun bevosita jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanmoq va sog‘lom turmush tarziga rioya qilinmog‘i muhim bo‘lsa, sog‘lom fikr egasi bo‘lmoq uchun doimiy ilmdan bahramand bo‘lib, kitob mutolaasi bilan shug‘ullanmoq lozim. Oliy darajadagi axloq sir emaski, insoniyatni yuksaklik sari yetaklaydi. Bunda tarbiyaning o‘rnini beqiyos. Bu borada, esa Abdulla Avloniy shunday qimmatli fikrlarini bildiradi: *“Tarbiya biz uchun yo‘hayot – yo‘mamot, yo‘najot – yo‘halokat, yo‘saodat – yo‘falokat masalasidir”*. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir kabi ko‘plab jadid ma‘rifatparvarlarining jahon andozasiga mos kadrlarni yetishtirish maqsadida ta’lim tizimini isloh qilish va ta’lim tizimida sharqona tarbiya usul va vositalar tanlanishi borasidagi ko‘plab fikrlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Umuman olganda, ular qoldirgan va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qarashlar ibrat maktabi bo‘lib, bu tizimda ona tili fanining ham o‘ziga xos o‘rnini mavjud.

Ma’lumki, tafakkur – insoniyatning beba ho boyligi, jamiki maxluqotlardan farqli tomoni, taraqqiyotni belgilab beruvchi bosh mezon. Bu mezonni chuqur anglagan holda ta’lim tizimini tashkil etish davr talabi sanaladi. Metodikaning bosh vazifalaridan biri esa o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishning turli usul va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Bunda esa ona tili fanining o‘rnini beqiyos.



“Ona tili” deb fanning yuritilishi, atalishining o‘ziyoq, har bir inson o‘zining ona tilisida tafakkur qilishi deganidir. Zero, ilk so‘zlarni “ona” atalmish buyuk zot hijjalab o‘rgatadi. Ona tilidan aytilgan har bir so‘z olqishlar ila kutib olinadi. Bu quvonch ona mehnati, ona sabri samarasidir. Shuning uchun jon-jonimizga singib ketgan ona tilimiz bizning tafakkur qilishimizda buyuk vositachi, fanlarni o‘rgatishda betakror “o‘qituvchi” desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois, bиринчи navbatda, ona tili fani boshqa fanlar bilan aloqadorlikni tashkil qiladi. Bu aloqadorlik fanda “integratsiya” (lotincha so‘z bo‘lib, “tiklash” yoki “to‘ldirish” ma’nosini anglatadi) atamasi bilan yuritiladi. Ona tili fanini o‘qitishda integrativ yondashuv davr talabi va o‘quvchi tafakkur olamini boyitishning eng mukammal, samarali usulidir. O‘sib kelayotgan yosh avlod jadal sur’atlarda rivojlanayotgan olam voqeliklaridan bahra olayotganligi bois, ularga ta‘lim berishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ilg‘or usullarini ishlab chiqish talab qiladi. Bolalar psixologiyasi bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab tadqiqotchilar ijodkorlikka o‘rgatish mumkinligiga amin ekanliklarini ta‘kidlashadi. Agar o‘quvchi dastlab yaratishni, ixtiro qilishni, muammolarga o‘ziga xos yechimlar topishni o‘rgansa, unda tayyor o‘quv modelini qayta ishlab chiqaradigan an‘anaviy o‘quvchidan ko‘ra bu o‘quvchinig shaxs sifatida shakllanishi katta farq qiladi. O‘quv jarayoni o‘quvchining o‘zini anglash, o‘zini anglash jarayonida tafakkur asosidagi faoliyatida yangidan yangi imkoniyatlarini va qobiliyatlarini kashf qilishga aylanadi [2]. O‘quvchi dunyoqarashi va tafakkur dunyosini boyitishga qaratilgan bunday o‘quv muhitni yaratish peadodgogdan katta mahoratni talab qiladi. Bizning nazarimizda, ana shunday ijodiy muhitni yaratishda ona tili va tasviriy san‘at fanlarini aloqadorlikda tashkil qilish o‘quvchini yaratuvchanlikka, ijodiy fikrлаshga, pozitiv ruhiyatga, olamni rang-baranglikda anglashga xizmat qiladi.

Amaldagi 6-sinf ona tili darsligida quyidagi mashq berilgan:

37-mashq. Matnni o‘qing. Matnning maqsadini belgilang. Tabiatni asrash haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.

Orolchada ishlar qizib ketdi: har kim har xil gullar, o‘simliklar keltirib ekdi. Qushlarga inlar qurildi. «Kuzatuv daftari»ga orolchada yuzdan ziyod giyoh, o‘simlik va jonivorlar borligi qayd etildi. Qushlar bu hisobga kirmasdi.
(A. Ko‘chimov)

Bunda o‘qituvchi mashqni o‘qittiradi va tabiatni asrash uchun nimalar qilish kerakligini rasm chizish orqali ko‘rsatishlarini topshiriq sifatida beradi. O‘quvchilar rangli qalamlar bilan tabiatni asrash uchun nimalar qilish kerakligini chizadilar va



chizilgan rasmlar asosida hikoya matnini yaratadilar.

Xuddi shu darslikda shunday mashq berilgan: **41-mashq.** Qish manzarasi aks etgan she'rni o'qing. Bu manzarani tasvirlab, nasriy matn tuzing, unda gaplarning bog'lanishiga diqqat qiling.

Kechki osmon ohista

Qorni elay boshlaydi.

Tunning qora sochiga

Oq oralay boshlaydi (Dilshod Rajab)

O'quvchilar she'rni o'qib, qish manzarasini chizadilar. Ular tasavvuridagi manzara qog'ozda aks etsa, tafakkurlarida bu manzara bilan bog'liq so'zlar assotsiatsiyasi hosil bo'ladi va rasm asosidagi tasvirlar asosida nutq ro'yobga chiqadi. Qalam va tafakkurning integrativ munosabatidan nutq rang-barangligiga erishiladi. Mashq shartiga ko'ra nasriy shaklda tasviriy matn yaratiladi.

Keyingi mashq muhokama matni mavzusi bilan bog'liq bo'lganligi uchun uning shartiga ozgina o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq. Dastlab o'qituvchi tomonidan darslik kitob yopilishi kerakligi aytildi va o'quvchilar qo'llariga qalam olishlari so'raladi. Doskada "Ninachi" so'zi yoziladi va o'quvchilarga ushbu hasharot chizilishi e'lon qilinadi. O'quvchilar ninachini chizish jarayonlarida ularning ong ostida ninachi bilan bog'liq dastlabki ma'lumotlar tizimi paydo bo'la boshlaydi: *ninachining rangi, tuzilishi, nima bilan oziqlanishi, hajmi va h.k.* O'quvchilar ninachi hasharotini chizib bo'lganlaridan so'ng, bu jonivor haqida nimalar bilishlari so'raladi. So'rov jarayonida o'quvchilarning muhokama qilishlari uchun erkin sharoit (agar sinf guruhchalarga bo'lingan bo'lsa, maslahatlashish imkoniyati) yaratib beriladi. Fikrlar tinglangandan so'ng, darslikda berilgan 48-mashq bajariladi.

48-mashq. Matnni o'qing, undagi gaplarning mazmunan va grammatik bog'lanishiga diqqat qiling.

NINACHI

Dunyoda eng ko'p ovqat yeydigan jonivor qaysi ekanligini bilasizmi? Siz, ehtimol, sher yoki yo'lbars deb o'ylarsiz. Boshqa birovlar ayiq yoki bo'ri deb hisoblar. Ba'zilar bunday jonivorlar qatoriga filni ham qo'shishar. Ammo bularning birortasi ham to'g'ri emas. Dunyoda eng ko'p ovqat yeydigan jonivor ninachidir. U ikki soat ichida qirqta pashsha va chivinni tutib yeydi. Agar uning gavdasi sher yoki fil kabi katta bo'lganida edi, birdaniga bitta sigirni yeb qo'yan bo'lar edi. Bitta ninachi shuncha zararli hasharotni yo'q qilsa,



o‘nlab, yuzlab ninachilarning tabiatga, odamlarga qanchalik foyda keltirishini tasavvur qilish mumkin. Bu bilan ninachi tabiat qo‘riqchisi vazifasini bajaradi. Tabiatda ninachiga o‘xshagan foydali jonivorlar ko‘p. Ularni asrash hammamizning vazifamizdir. («O‘zbek tilini o‘rganamiz» kitobidan) [1].

Ushbu mashq asosida ninachi haqidagi fikrlar xuloslanadi va ninachi rasmini chiroyli chizgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Tasviriy san’at fani bilan vobasta bajariladigan yuqoridagi mashqlar xotirani rivolantiradi va mavzuni to‘liq anglashga xizmat qilish barobarida olam rang-baragliagini his qilishiga xizmat qiladi. Zero, nemis san’atshunosi Ioxann Yoaxim Vinckelmann rasm chizish tafakkur yuritish uchun muhim vosita ekanligini uqtirib shunday yozadi: “Rassom yurgizayotgan rasm cho‘tkasini tafakkurga botirib olish kerak: Aristotel qalamining uchi ko‘z uchun emas, tafakkur uchun qoldirgan.”[3] Demak, ona tili darslarida o‘quvchining dunyoqarashi, tafakkuri, borliq haqidagi idrok yuritishida, nutqining jozibadorligida tasviriy san’at fanining ham o‘ziga xos o‘rni mavjud. Bugungi ta’lim tizimi dars jarayoniga integrativ yondashuvni talab qilar ekan, bu yondashuv o‘z samarasini berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N. Mahmudov, A.Nurmonov A.Sobirov, D.Nabiyeva 6-sinf Ona tili darsligi «TASVIR» NASHRIYOT UYI.T.: - 2017. B.-19
2. Плясова Г. Лингвистическое рисование как средство развития творческого мышления на уроках русского языка URL: <https://open-lesson.net/3454>
3. Картаслов.Ру — Карта слов и выражений русского языка URL: <https://kartaslov.ru>
4. Система образования — Википедия URL:<https://ru.wikipedia.org/wiki/>
5. Taraqqiyot yo‘lida ma’rifatparvarlik (II-bo‘lim) | Tarjumon.uz URL:<https://tarjumon.uz/5180?script=lat>



OILADA FARZAND TARBIYASIDA KLASTER USULIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

R.MUSURMANOV,
CHDPI dotsenti.p.f.n.

Oilada farzand tarbiyasi hanuz muammoligicha qolmoqda. Maqlolada farzandlarni oilaviy sharoitda barkamol insonlar qilib tarbiyalashning klaster (hamkorlikda) usulidan keng foydalinish to 'g'risida fikr yuritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: *oila, farzand, tarbiya, barkamol inson, klaster, maktab, mahalla, jamoatchilik, Sharq mutasakkirlari, mumtoz manbalar.*

Проблемы воспитания детей в семье остается актуальным. В статье приведены мысли о воспитании ребенка в семейных условиях достойного человека методом кластера.

Ключевые слова: семья, ребенка, воспитание, достойного человека, метод, кластер, школа, махалля, общество, восточные мыслители, классические наследии.

The article presents thoughts on raising a child in a family environment of a worthy person using the cluster method.

Key words: *family, child, parenting, worthy person, method, cluster, school, mahalla, society, Eastern thinkers, classical heritage.*

Uzlusiz ta'lif tizimini tubdan isloh qilishdan aniq maqsad ham ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarni jamiyat talablariga mos ravishda tarbiyalashni taqoza etadi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar, o'z samarasini berishi shubhasizdir. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan buyon oilaning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini yanada kuchaytirish, sog'lom oilani shakllantirish davlat miqyosidagi muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu boroda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar oila manfaatlariga, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Zero oila jamiyatimizning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Chirchiq Davlat pedagogika institutida yaratilgan "Pedagogik ta'lif innovatsion klasteri" ana shunday tashabbuslar, ilmiy izlanishlar natijasidir. Bunda bir guruh ta'lif-tarbiya sub'ektlarining innovatsion mahsulot yaratishga va uning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradigan yangi tizim bo'lib, u sohaning milliy va mintaqaviy darajada rivojlanishi uchun kuchli rag'bat beradi. Shunga ko'ra, klaster yondashuvi fan va ta'lifni, pirovardida, amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash hamda amalga oshirish imkonini yaratadi. Klaster doirasida bir nechta sub'ektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni murakkab, ko'ptarmoqli ilmiy-amaliy faoliyatdir. O'zaro



bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisobkitoblar va ilmiy echimlarni, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi, shundagina klaster sub'ektlarining ishonchini qozonadi. Shunday ekan, pedagogik ta'limg innovatsion klasteri doirasidagi ilmiy-pedagogik loyihalarni amalda sinab ko'rish muayyan tajriba-maydonchalari bo'lishni talab etadi.

"Pedagogik ta'limg innovatsion klasteri" ko'p tarmoqli bo'lib, uni ta'limg tarbiyaning barcha sohalarida qo'llash kutilgan natijani berishi shubhasiz. Ushbu yangilikdan umumli foydalanish maqsadida biz "Oilaviy sharoitda farzandlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda" yangi pedagogik innovatsion klaster usulidan foydalanishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydir. Buning uchun oila, ta'limg muassasasi, mahalla, yoshlar tashkilotlari va keng jamoatchilikni bitta maqsad yo'lida birlashish orqali kelajak avlodlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga hissa qo'shishga qaror qildik. Bu borada institutimizning "Pedagogika" fakultetidagi "Pedagogika va menejment" kafedrasi professor-o'qituvchilari jiddiy ilmiy-amaliy izlanishlarni boshlab yuborishdi. Ana shu maqsadlar samarasini o'laroq, Chirchiq shahar 2-umumta'limg maktabi kafedramiz uchun "**Maktab-laboratoriya**" – pedagogik ta'limg innovatsion klasterining ob'ekti bo'lib, ta'limg turlarining ilmiy, uslubiy va ta'limiylar, tarbiyaviy faoliyatini rivojlantirish maqsadiga qaratilgan innovatsion loyihalar bo'yicha tajriba-sinov maydonchasi hisoblanadi.

Har bir xalqning o'ziga xos an'analari, rasm-rusumlari va qadriyatları bor. O'zbek oilasining bolajonligi, er-xotin va farzandlar o'rtaqidagi munosabatlarning samimiyligi, or-nomusning kuchliligi, yoshlarga izzat, kattalarga hurmat kabi fazilatlar bilan ajralib turadi.

Demak, ilk hayotiy haqiqat – tarbiya oiladan boshlanadi. Bunda ota-onaning mas'uliyati juda yuqoridir. Ota-onha o'z surriyodlarini barkamol insonlar bo'lib voyaga etkazishda jamiyat va davlat oldida mas'uldir. Bu mas'ullik oilada farzand o'stirayotgan har bir ota-onaga Vatan kelajagi uchun qayg'urishdek kechiktirib bo'lmaydigan sharafli vazifani yuklaydi. Tarbiya masalasi juda nozik va o'ta mas'uliyatli bo'lgani uchun ham milliy qadriyatlar hamda o'tmishdag'i allomalarimizning farzand tarbiyasidagi ma'naviy boyliklaridan keng va o'rinni foydalanib, Vatanimizni jadal rivojlantirish, xalqimiz faravonligini oshirishga xizmat qilishi maqsad bo'lmog'i lozim. Buning uchun tarbiya sohasida etarli tajriba bo'lishi, ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi.

Oilaning jamiyat rivojidagi birlamchi vazifasi ma'naviy butunlikdir. Ma'naviyatsiz moddiy faravonlikka ham, taraqqiyotga ham erishib bo'lmaydi.



Ma’naviy qashshoqlig milliy tanazzulga olib boradi. Nopok, ma’naviy qashshoq ota-onal halol, ma’naviy etuk farzandni tarbiyalay olmaydi. Chunki farzandlar ota-onadan ibrat oladi. Oilada ota-onal bir-biriga mehr-muhabbatli bo‘lsa, farzandlar ham shunga yarasha tarbiyalanadilar. Ulg‘ayib mustahkam hayotga qadam qo‘yganlarida, uyli-joyli bo‘lganlarda ota-onadan olgan tarbiyasi hayot maktabi vazifasini o‘taydi, bunday oila mustahkam asosga ega bo‘ladi.

O‘zbek oilasining ko‘pchiligi serfarzand. Farzandlarni dunyoga keltirish va el-yurt uchun munosib insonlar qilib tarbiyalash oilaning jamiyat oldidagi eng muhim vazifasi sanaladi. Demograf olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra , aholi soni me’yorlarini saqlab turish uchun har 100 oilaga 260 bola to‘g‘ri kelishi kerak. Agar har bir oila bittadan farzand ko‘rsa, sakkizinchchi avlodga kelib, ya’ni 200 yildan keyin bu xalq millat sifatida yo‘q bo‘lib ketishi mumkin ekan.

Shuning uchun ham milliy oilalarda farzandlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash mas’uliyati nafaqat oila boshliqlari balki, ta’lim-tarbiya muassasalarini, mahalla va keng jamoatchilikning ham o‘ta dolzarb, kechiktirib bo‘lmash vazifalari sanaladi. Xalqimizda «Bir bolaga etti mahalla – ota-onal» degan ibratli ibora bor. O‘zbeklar azaldan «Bolaning begonasi bo‘lmaydi» shioriga amal qilib keladi. Bu jamiyat taraqqiyotiga befarq bo‘lmashlik, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini ma’naviy etuk insonlar qilib tarbiyalash, xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashni taqazo etadi.

Ma’lumki, ota-onalarning oilada farzand tarbiyasidagi tayyorgarlik darajalari turlichadir. Ayniqsa, yosh oilalar, pedagogik-psixologik jihatdan etarli tushuncha va bilimlarga ega bo‘limgan oila boshliqlarida ma’lum darajada ehtiyoj borki, bu kemtiklikni ta’lim-tarbiya muassasalarini pedagoglari, mahallalardagi tajribali oilalar boshliqlari, yosh avlod tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan bolalar tashkilotlari va keng jamoatchilik hamkorligida klaster usulida har bir bolaga e’tibor qaratish, oqibat natijada o‘sib-ulg‘ayib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz zamon ruhiga mos va xos tarbiyalanishlari shart.

Barkamol insonni tarbiyalashning bunday pedagogik innovations klaster usuli juda qulay bo‘lib, har bir ob‘ekt o‘z mas’uliyatini his qilgan holda, o‘z o‘rnida vazifa-burchlarini hamkorlikda amalga oshiradilar. Tarbiyaning bu – usuli ayniqsa, bolalarning o‘smirlilik davrida juda qo‘l keladi. Chunki, o‘smirlilik davriga har bir o‘g‘il-qiz uchun anchagina tashvishli kechadi. Bolalar o‘rtasidagi qonunbuzarlik va jinoyatchilikni sodir etadigan yoshlarning ko‘pchiligi o‘smirlilik davriga to‘g‘ri kelishi ham buning yaqqol isbotidir.

Klaster atamasi – keng tushuncha bo‘lib, maqsadga erishishning natijadorligiga



bir maqsadli hamkorlar (tarmoqlar metodi) bilan belgilangan vazifalarni to‘la-to‘kis ado etish, samaradorlikni ta‘minlash demakdir. Bu borada avvaldan davlatimizning «Oila, mahalla va ta‘lim muassasasi» konsepsiysi ham qabul qilingan bo‘lib, uning talabalarini amalga oshirish esa sansolarlikka solib kelinmoqda. Ochig‘ini tan olish kerakki, bolalarning tarbiyasi faqat maktablardagi pedagoglar zimmasiga qolib kelmoqda. Ayrim ota-onalarning «Bolani mактаб tarbiyalaydi. Buning uchun davlat o‘qituvchilarga oylik maosh to‘laydi» singari kurakka turmaydigan bema’ni gaplari ensani qotiradi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoevning yoshlар tarbiyasiga berayotgan e’tiborlari, «Oila va mahallani qo‘llab-quvvatlash vazirligini tashkil etish to‘g‘risida» gi farmonlari fikrimizni to‘la tasdiqlaydi.

Ayni paytda ota-onalarning oilalarda farzand tarbiyasi sohasida olib borayotgan ishlardan ko‘ngil to‘lmaydi. Ularning ta‘lim-tarbiya muassasalarini bilan hamkorlik ishlari yomon ahvolda. O‘rganishlardan ma‘lumki, ota-onalar, ayniqsa, otalar o‘z farzandlari tahsil olayotgan maktablarga o‘quv yili davomida bir marta ham kelmaydilar. Bolalarining o‘qishi, intizomi, xulqi bilan deyarli qiziqmaydilar. Tarbiyaning klaster usuli esa ana shunday ota-onalarni jalb qilishda «Mahalla fuqarolar yig‘in»lari orqali ta‘sir ko‘rsatish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Chunki hamma aholi mahallada yashaydi. «Mahalla fuqarolar yig‘in»lari esa o‘z hududidagi barcha oilalarni ijtimoiy nazorat qilishga haqli. Afsuski, ana shu talab va ehtiyojga nisbatan panja orasidan qarash hamon davom etmoqda.

Shu o‘rinda yana bir taklifni ilgari surmoqchimiz. Ko‘pchiilik ota-onalar davlat tashkiloti va korxonalarida mehnat qiladilar. Maktab rahbarlari dars intizomiga salbiy munosabatdagi, xulqi yomon bolalarning ota-onalari ishlaydigan tashkilot-korxonalar rahbarlari nomiga xat orqali bildirishnoma yuborib, «Siz rahbarlik qilayotgan tashkilot-korxonada faoliyat olib borayotgan xodimizning (ismi-sharifi) farzandi bizning maktabimizda tahsil olishini ma‘lum qilib, uning otasi (onasi) doimiy ogohlantirishlarimizga qaramay, maktab ma‘muriyatining murojaatlariga va o‘z farzandining kelajagiga bepisandlik bilan qarab, biror marta ham tashrif buyurishni o‘ziga ep bilmadi. Farzandining tarbiyasida ko‘plab nuqsonlar borligi biz pedagoglarni tashvishga solmoqda. Sizdan vakolatingiz doirasida o‘z farzandi tarbiyasiga beparvolik bilan munosabatda bo‘layotgan xodimga nisbatan chora ko‘rishingizni so‘raymiz. Axir, yosh avlodni barkamol insonlar etib tarbiyalashda barchamiz mas‘ul ekanligimizni vaziyat taqazo etadi.» Yoki aksincha, «Siz rahbarlik qilayotgan tashkilot-korxonada faoliyat olib borayotgan xodimizning (ismi-sharifi) farzandi bizning maktabimizda tahsil olishini ma‘lum qilib, mammuniyat bilan qayd



etamizki, u xodimizingiz o‘z farzandlarini barkamol insonlar qilib tarbiyalashda katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Uning farzandlari a’lo baholarda o‘qishi, namunali xulqi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelmoqda. Farzand tarbiyasidagi uning ijobjiy natijalarini inobatga olib, vakolatingiz va imkoniyatingiz darajasida ma’naviy va moddiy rag‘batlanirishingizni so‘raymiz.»

Shu o‘rinda istardikki, mактаб bilan mahalla va tashkilot-korxonalar o‘rtasida shunday tizim yaratilishi kerakki, mактаб bilan tashkilot-korxonalar o‘rtasidagi ko‘priк vazifasini mahalla bajarsa, ayni muddao bo‘lur edi. Buning tashabbuskori esa mактаб bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Tashkilot-korxona rahbarlariga umumiylar maqsad yo‘lida bildirishnoma bilan murojaat qilish faqat naf‘keltiradi. Bolasining namunali xulqi va a’lo baholarda o‘qiyotgani, yoki tarbiyasida nuqsoni bo‘lgani va fanlarni o‘zlashtirmayotgani uchun korxonada ota-onalar doskasini tashkil etish o‘rinli bo‘lar edi. Tashkilot-korxona rahbarlari yil yakunlari bilan ota-onalarga farzandlari tarbiyasidagi yutuq va kamchiliklari uchun ijobjiy yoki salbiy munosabat bildirish orqali ham ta’sir etishlari mumkin. Moddiy rag‘batlanirish imkon bo‘lmagan taqdirda ham ma’naviy rag‘bat hamisha topiladi. Hatto, namunali ota-onalarga qo‘srimcha ta’tillar berish, mukofotlar tashkil etishdan o‘ylaymizki, faqat foyda bo‘ladi.

Xulosa qilish mumkinki, hozirgi globallashuv jarayonida bolalar ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish maqsadida «Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri» imkoniyatlariidan unumli foydalanish uchun ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish va amaliyotga tatbiq etishdan faqat jamiyat foyda ko‘radi. Axir, jamiyatga ma’naviyati butun, har qanday sharoitda ham raqobatlasha oladigan yoshlar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘.I. Muxamedov,U.N.Xo‘jamqulov “Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: ta’rif, tavsiif, tasnif” ilmiy risola. Chirchiq – 2019.
2. O.Hasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi, T.: 2007.
3. B.Ziyamuxamedov Pedagogika, T.: 2014.
4. O.Bo‘riev, M.Usmonov O‘zbek oilasi, T.: 2012.
5. R.Musurmonov Hayot – ustoz, umr – karomat, T.: 2018.
6. R.Musurmonov Umr sadosi, T.: - 2019.



TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING O'QUVCHI YOSHLAR BILAN MUOMALA ODOBI VA MULOQATNI TASHKIL ETISH TEXNIKASI

D.I.XODJAKULOVA,
TTESI dotsenti

Ushbu maqolada ta'lrim tizimida o'qituvchining o'quvchi yoshlari va talabalar bilan muomala odobi va muloqat olib borish yo'llari, usullari hamda o'qituvchining kommunikativlik qobiliyati haqida so'z boradi.

Tayanch so'z va iboralar: muloqat, nutq madaniyati, kommunikativlik, pedagogik takt, fikr, usul.

В данной статье рассматриваются методы исследования коммуникативных способностей учителя с учениками старших классов и студентами, повышения способов преподавания культуры речи и поведения в системе образования.

Ключевые слова: общение, речь культуры, коммуникативность, педагогический такт, мышление, метод.

This article discusses methods for studying the communication skills of a teacher with senior pupils and students, improving the methods of teaching the culture of speech and behavior in the education system.

Key words: communication, speech of culture, communication.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'limgardiy va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonini ijrosini ta'milash - uzlusiz ta'lim tizimining ta'limgardiy masalalari samaradorligini ya'nada oshirish, dars jarayonini sifatlari olib borish, aynan shu yo'lda pedagoglarimizning nutq madaniyati, ularning kommunikativlik darajasi, o'quvchi va talabalar bilan muomala munosabatlari muhim o'rinn tutadi.

O'qituvchi va o'quvchi, talaba o'rtasidagi munosabat va muomala madaniyati, ularning fe'l-atvori, xulqi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'qimishli, madaniyatli, o'qituvchi hamkasidan, o'quvchisidan, talabasidan nimani, qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat qilish mumkinmi yoki yo'qligini, oilaviy munosabatlarga daxldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormi yo'qligini yaxshi anglaydi. Muomala jarayonida suhbatdoshining kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, uning o'z kuchiga ishonchini hosil qilish ham o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuhratparastlik, manmanlik, befarqlik, hasadgo'ylik, g'iybatchilik kabi



illatlarga toqat qila olmaydi va unga qarshi kurashadi.

O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq. Chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi quadrati psixologik kuchga ega. Uni faqat o'zining mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta'sir darajasi va quadratini yanada orttirish mumkin Ingliz adib B.Shou aytganidek, «Ha» so'zini aytishning 50 dan ortiq uslubi bor, «Yo'q» so'zini ham shuncha uslubi bor, ammo bu so'zni yozishni faqat bir uslubi bor». Bu fikr zamirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim, ma'no yashiringan. O'qituvchi muloqotining negizida so'z, fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir o'qituvchining saviyasi, ma'naviy dunyosi, madaniyatiga asoslanadi.

O'qituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarga, balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda ayniqsa umumta'lum maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini fe'l-atvorini, xarakterini, qiziqishlarini, individual xususiyatlarini o'rganish, ularni bir-birligiga mehr-muruvvatli bo'lishga o'rgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish naqadar dolzarbligini anglash mumkin. Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Artur Konon Doyl asarining qahramoni, mashhur izquvar Sherlok Xolms ta'kidlaganidek: «Har bir inson o'z xususiyatiga ko'ra hal etilmaydigan jumboq»dir. Kishilar xulqi, fe'l atvori bilan bir-birlaridan farq qiladilar, ammo ular orasidagi o'xshashlik ma'lum darajada saqlanib qoladi.

Demak, odamzodning tashqi turqi, ichki olami, insoniy qiyofasi, hozirgi ko'rinishi uzoq tarixiy kamolot natijasidir. Bu kamolot zamirida esa kishilar o'tasidagi muloqot hamda muomala madaniyati turganligi sir emas. Shu sababli o'qituvchining muloqot madaniyatida ham oqilona ehtiyojni anglab olish muhim vazifadir.

O'qituvchining ish faoliyati davomida o'quvchi va talabalar bilan muomala munosabatlari katta o'rinn egallaydi. Bu jarayonda yoshlar insoniyat to'plagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini o'zlashtiradi. O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bo'lib xizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan.

O'qituvchi o'quvchi va talabalarini o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf odad mezonlaridan saboq beradi. Yoshlar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolidha anglab oladilar.

O'qituvchi bilan yuqori sinf o'quvchilari hamda talaba o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri ularning xulqini, muomalasasini,



bajargan ishini odilona, to‘g‘ri baholashdir. Muloqotlar jarayonida o‘qituvchi ayrim talablarga rioya qilishiga to‘g‘ri keladi: o‘z ishi jarayonida o‘qituvchi har bir o‘quvchi va talabaning qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, ularga nisbatan ishonchi; ularga mehribon, g‘amxo‘r bo‘lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo‘lish; ular bilan har qanday muloqot jarayonida alohida yondoshish, pedagogik taktni saqlash. Umumo‘rtta maktablarning yuqori sinf o‘quvchilar bilan juda ehtiyojkorlik bilan muomala olib borish, ya’ni o‘ylamasdan aytilgan bir og‘iz so‘z qay bir oqibatlarga olib kelishini har bir pedagog oldindan bilmog‘i lozim.

O‘qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish Milliy dastur, Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonundan kelib chiqadigan vazifalarni o‘quvchilar, talabalar, o‘quv yurtlarining pedagog xodimlari, professor o‘qituvchilar amalga oshiradilar.

Shu bois pedagog xodimlar o‘zlarining kasbkor sha’ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari, odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, o‘quvchi va talaba shaxsingning qadr-qimmatini asrashlari lozim. Ular bilan suhbat jarayonida ko‘proq maqtov, qo‘llab quvvatlovchi, rag‘batlantiruvchi so‘zlarni ishlatish zarur. Bu o‘quvchi va talabani o‘z yantuqlarini sizning shaxsingiz bilan bog‘lashiga olib keladi. O‘zingizni kuzating, talabalar va o‘quvchilarni hamma vaqt ham to‘g‘ri javobi uchun maqtaysizmi?

Nafaqat yaxshi o‘quvchi va talaba, balki bo‘sh o‘qiydigan, lekin xatosini tuzatishga intilayotgan talabani ham maqtashga tayyormisiz? O‘z bahoingizga «ofarin», «men buni ma’qullayman», «yechimi to‘g‘ri», «rahmat» kabi so‘zlarni qanchalik ko‘p ishlatasiz.

Yodingizda bo‘lsinki, maqtov, qo‘llab quvvatlash, do‘stona muhit hamkorlikdagi ijodiy ishning eng muhim shartidir.

Yoshlarimiz siz ularga qanday munosabatda ekanligingizni bilishlari kerak. Talabalarning ismlarini, ular shaxsiga oid boshqa ma‘lumotlarni bilib oling. Bu o‘qituvchi uchun zarurdir. Talaba bilan yakkama-yakka suhbatlashish zaruriyati kelganimi sezsangiz, bo‘lg‘usi suhbat rejasini tuzib chiqish kerak. Reja tuzayotganingizda quyidagilarni hisobga olish zarur: suhbatdan asosiy maqsadingiz nima? Suhbat zarurmi yoki boshqa vositalardan foydalanish mumkinmi? Suhbat davomida qanday savollar bermoqchisiz? Suhbat natijasi tarbiyaviy jihatdan foydali bo‘lishiga ishonchingiz komilmi? Suhbatdan qanday salbiy yakun kutayapsiz? Suhbatda qanday tarbiyaviy usul va yo‘llardan foydalanmoqchisiz? Suhbatni nimadan boshlaysiz va uni qanday o‘tkazasiz?

Endi yakkama-yakka suhbat chog‘ida talabaning o‘zini tutishini ko‘z oldingizga keltiring:



suhbat mavzusiga qanday munosabat bildiradi, unga qatnashadimi?

Suhbat aro yo'lda qolib ketmaydimi, agar shunday hol sodir bo'lsa, o'zingizni qanday tutgan bo'lardingiz?

Agar talaba janjal chiqarsa nima qilgan bo'lardingiz?

Suhbatni tashkil qilish uchun umumiylashtirishni tavsiyanomalar bilan tanishing; berilgan savolning mohiyatini tushunib yetmaguncha javob berishga shoshilmang; biron narsa aytgingiz kelib tursa ham talabaning so'zini bo'lmang; talaba e'tiroziga jahl bilan javob bermang, bu muloqotga halaqit beradi; suhbatni ovozni balandlatib tugatmang; suhbat davomida talabalar bilan munosabatingizni rivojlantirish yo'llarini axtaring.

Darsda kommunikativ tayyorlanishni unutmang!

Dars berishingiz kerak bo'lgan sinfni eslang;

Butunlay kommunikativ tayyorgarlik uchun esa quyidagi dastur tavsiya etiladi:

– mazkur sinfda muloqotning qaysi tipidan foydalanish lozimligini ko'z oldingizga keltiring;

– sinfning sizni va dars materialini qanday qabul qilishini tessavvur eting;

– konsept yoki texnoloik xarita ustida ishlar ekansiz, dars bo'laklarini rejorashtiring;

– sinfdagi umumiy ruhiy vaziyatni ko'z oldingizdan o'tkazing;

– ayrim talabalar bilan o'zaro munosabatingizni ham unutmang, ayrim talabalarga nisbatan shakllangan bir qolipdagisi fikrlardan voz keching;

– nihoyat, darsda bo'ladijan muloqot muhitini his qilishga harakat qiling. Nutq suratiga e'tibor bering: chunki, bilimni o'zlashtirish samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq;

Nutqingizdan baqirib aytildigan dag'al so'zlarni chiqarib tashlang, ular talabalarga salbiy ta'sir qiladi;

Har bir o'qituvchi bilishi kerak bo'lgan pedagogik muloqotni tashkil qilishning asosiy ruhiy pedagogik talablari shulardan iborat. Shubhasiz, uni yodlab olish va ko'rko'rona tadbiq qilish yetarlimas. U o'qituvchiga o'quvvat tarbiya jarayoniga eng asosiy omil - inson omiliga samarali ta'sir etishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Maxmudov. N. O'qituvchining nutq madaniyati.-Toshkent.,2007
- Jumaniyazov. R. Muomala madaniyati.-Toshkent.,2015



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA UNDA OILA HAMKORLIGI

Z.PALIBAYEVA,
O'zRK o'qituvchisi

Inson, uning hayoti va salomatligini ta'minlash, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan baquvvat qilib tarbiyalash bugungi kunda dolzarb ijtimoiy masala darajasiga ko'tarilmoqda.

Mazkur maqola bevosita uzluksiz ta'lism tizimida va oilada yoshlarni sog'gom turmush tarziga o'rgatish va unga o'rgatish masalalariga bag'ishlanadi.

Tayanch iboralar: uzluksiz ta'lism tizimi va oilada sog'gom turmush tarzi, salomatlik, o'quvchilar, jismoniy tarbiya, sport, ta'lism va tarbiya.

Ensuring human life and health, raising the young generation to be physically strong is becoming a topical social issue today.

This article focuses on teaching and educating young people in a healthy lifestyle in the system of continuing education and in the family.

Key words: continuing education system and healthy lifestyle in the family, health, students, physical education, sports, education and upbringing.

Обеспечение жизни и здоровья человека, воспитание подрастающего поколения физически сильным становится сегодня актуальной социальной проблемой.

Эта статья посвящена обучению и просвещению молодежи по вопросам здорового образа жизни в системе непрерывного образования и в семье.

Ключевые слова: непрерывное образование и здоровая семейная жизнь, здоровье, студенты, физическая культура, спорт, образование и воспитание.

Turmush tarzi – bu jamiyatda odamlarning faoliyati yurish turishi tartibi bo'lib, yashash sharoitlari bilan bog'langan, ularga javob beradi, ulardan u yoki bu darajada foydalanishni nazarda tutadi. Turmush tarzi- har bir shaxsning turmush kechirishi yoki boshqacha aytganda ularning yashash faoliyati shaklidir. Yashash sharoiti esa turmush tarzi bilan vositalashgan va shartlangan omillar yig'indisi bo'lib belglaydi yoki boshqacha qilib aystsak, yashash sharoiti turmush tarziga ta'sir kursatuvchi moddiy va manaviy omillar yig'indisidan tarkib topadi.

Odatda turmush tarzining quyidagi turlari farqlanadi:

- mexnat faoliyati bilan boo'liq turmush tarzi;
- Ijtimoiy – siyosiy faoliyat bilan bog'liq turmush tarzi;
- Tashqi dunyoni bilib olish, bilimlarga intilish bilan bog'liq turmush tarzi;
- Madaniy hayot bilan bog'langan turmush tarzi;



– Oila va tarbiyaviy jarayonlar bilan bog‘liq turmush tarzi.

Mexnat faoliyati va ishlab chiqarish bilan bog‘liq turmush turmush tarziga: mexnatning turi, uning mazmuni, tarkibiy qismlari, tashkil qilish darajasi va hokazolar kiradi. Bunda ishlab chiqarish tarmog‘i, jismoniy yoki intellektual ish rejimi, avtomatlashtirish yoki mexanizastiyalash darajasi, mehnat intizomi, ish hajmi, tashabbuskorlik, mehnatga va jamoaga munosabati, ruxiy va emostional holat, o‘z ishidan qoniqish hosil qilish darajasi kabilar inobatga olinadi.

– Turmush tarzining muhim turiga insonning ijtimoiy siyosiy faolligi ham kiradi. Bularga doimiy ravishda jamoatchilik asosida ma’lum vazifani bajarish, saylov organlari ichida qatnashish, mamlakatning tashqi va ichki siyosati masalalarida savodxonligi, siyosiy adabiyotga kizikish, yigilishlarda katnashib, chiqishlar qilish va hokazolar kiradi.

– Turmush tarzining boshqa turlariga insonning turmushda, jamoatchilik oldida o‘zini tuta bilishi oilalarning moddiy jihatdan ta’minlanganligi oila byudjetidan foydalanish uning taqsimoti, shu jumladan:

– oila a’zolarining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanishi;

– uy-joy va yashash sharoitini yaxshilash;

– kiyim-kechak sotib olish;

– madaniy ehtiyojlarga: teatr kino, kitoblar sotib olish, gazeta va jurnallarga obuna bulish va boshqalarini sanab o’tish mumkin.

– Insonlarning turmush tarziga ularning yashash sharoitlari ham bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatadi. Bunga moddiy, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va boshqa omillar ta’sirini misol qilib keltirish mumkin.

– Odamlarning yashash sharoitlari – mexnati, turmushi, bilimi, madaniyati, ovqatlanish tarzi, uy-joy sharoiti, oila byudjeti tarbiyasi, oilaviy munosabatlari va boshqa ijtimoiy omillar kishilarning turmush tarziga o‘z ta’sirini o’tkazadi.

Shuning uchun odamlarning yashashi va turmush darajasi turli mamlakatlarda turlicha bulib, u mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, siyosiy xolati, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi, mamlakat milliy daromadi va iste’mol fondlari xajmi, odamlarning daromadi, uy-joy bilan ta’minlanishi, tibbiy yordam olish darajasi, aholini savodxonligi, ish vaqtining davomiyligi, salomatlik kursatkichlari va demografik jarayonlar holati kabilar bilan belgilanadi.

Turmush tarzi inson faoliyatining shunday – “tayanch nuqtasiki”, tibbiyot ilmi unga tayangan holda, odamlar salomatligini tubdan yaxshilashga erishishga yo‘l topadi. Sog‘lom turmush tarzi – shunday yashash tarziki, unda odamlar



salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar bo'lmasligi, inson ulardan ongli ravishda o'zini chetga olishi kerak.

Sog'lom turmush tarzi yoki oqilona yashash tarzi tushunchalari keng qamrovli bo'lib, uz ichiga insonning tug'ilishidan boshlab umrining oxirigacha aql farosat bilan yashashini – zararli odatlardan holi bo'lishini, to'g'ri ovqatlanib, to'g'ri dam ola bilishi kabi ko'plab boshqa ijobjiy xislatlarini oladi. Oqilona turmush tarzi har bir insonning aql farosati — bilan yaratiladi va har bir kishi uchun individualdir. Bir kishiga foydali bo'lgan narsa boshqaga zarar keltirishi mumkin. Hayot ritmi, mehnat qilish va uxlash davomiyligi, qabul qilinadigan miqdori va sifati har bir inson tomonidan o'z ehtiyoji va imkoniyatiga qarab tanlab olinishi zarur. Shuning uchun ham salomatlikni inson aqlining mahsuli deb karash kerak. Insonni uning o'z xohishiga qarshi sog'lom qilish va unga uzoq umr baxshida etish aslo mumkin emas. Sog'lom turmush tarzi o'z asosida biologik va ijtimoiy tamoyillarni mujassamlashtiradi.

Biologik nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzi:

Organizmning yoshiga bog'liq xususiyatlarga va salomatlik holatiga mos kelishi, organizmning energiya ta'minotiga bulgan talabini iste'mol qilinayotgan oziq-ovqat maxsulotlari xisobiga to'la qondirilishi;

Organizmning mustahkam va jismoniy faol bo'lishi;

Belgilangan kun tartibiga rioya qilish, mehnat qilish va dam olishni mutanosib qilishga asoslanishi, hayot ritmlariga mos kelishi. Ijtimoiy nuqtai nazardan esa: axloqiy pok bo'lish; iroda asosida boshqarish; go'zal bulishi; o'zini-uzi tarbiyalashga asoslanishi lozim.

Sog'lom turmush tarzi tushunchasi o'z tarkibiga:

- Zararli odatlardan (tamaki chekish, spirtli ichimliklarni ichish va giyohvandlik) tiyilish;
- Muttasil ravishda jismoniy va harakat faolligi, mo'tadil harakatlanish tartibiga rioya kilish;
- Tarkib jihatidan tenglashtirilgan va rastional ovqatlanish;
- Organizmni chiniqtirish;
- Shaxsiy va jamoatchilik gigienasi;
- Ijobjiy ehtiroslar, ziddiyatlari vaziyatlardan o'zini chetga olish, stress holatlarini oqilona echimini topa bilish;
- Tartibli mexnat qilish va to'laqonli dam olish;
- Qulay ruhiy holatga ega bo'lish bilan ruxiy filiologik jixatdan qoniqib yashash;



– Yuksak tibbiy faollikga ega bo‘lish;

– Iqtisodiy va madaniy jihatdan mustaqillik;

O‘z ishidan qoniqish hosil qilib yashash kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Fan – texnikaning g‘oyat ulkan imkoniyatlari odamlardan sog‘lom turmush tarzini shakkantirishni o‘z-o‘zidan taminlab bermaydi. Bu o‘rinda sub’ektib omilning, ya‘ni sog‘lom gigienaga asoslangan turmush tarzini ta’milovchi kuchli ijtimoiy siyosatning faol rol o‘ynashi talab etiladi. Sog‘lom tarzi mexnat, turmush va dam olish gigienasi, shaxslar aro madaniyatini, ekologik madaniyat o‘z organizmini fiziologik jihatdan avaylash va atrofdagilarning salomatligi to‘g‘risida qayg‘urish singari kopleks omillarni o‘z ichiga oladi.

Mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti o‘sib va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy – gigienik mezonlarini aniq belgilab olishning ahamiyati ayniqsa ortadi.

Komil inson g‘oyasi – ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma‘naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olivjanob g‘oyadir. Bu g‘oya butun xalqlarni yuksak taraqqiyot etaklagan, ularni ma‘naviyat va ma‘rifat sohasida milsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga etkazish haqida qayg‘armagan xalqning va millatning kelajagi yo‘q.

Komil inson g‘oyasi azaldan xalqimizning egzu orzusi bo‘lib kelgan. Shu sababli yangilanayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodning tarbiyalash, erkin fuqaro ma‘naviyatini shakkantirish, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yuksak darajasiga ko‘tarish orqali barkamol insonlarni voyaga etkazishga muhim e’tibor berilmoqda.

Sharq falsafasida va ma‘naviyatida birinchilar qatorida komil inson tushunchasini ta‘riflab bergan ulug‘ donishmand va faylasuf olim Jaloliddin Rumiy bo‘lib hisoblanadi. Rumiy sog‘lom va barkamol shaxs g‘oyasini ta‘riflab, komil insonlar shunday insonlarki, ular o‘zlarida dunyoviy va diniy ilmlarni mushtarak qilib o‘zlashtirib, millat manfaatini, vatan manfaatini o‘ziniidan ustun qo‘ya oladilar. Ular yolg‘iz o‘z manfaat va ehtiyojlarini bilan band bo‘lib, tirikchilik tashvishlaridan zir yugurib, ulardan baland ko‘tara olmagan va o‘zining insoniy mohiyatini anglash darajasiga etmagan odamlardan farqli o‘laroq, o‘z mohiyatini chuqur anglagan mukammal insonlardir, shu boisdan ularni – komil inson deb ataydilar.

Respublikamizning buyuk kelajagi ana shunday komil insonlarni tarbiyalab, etishtirish darajasi bilan belgilanadi. Insoni komil – olamning gultojidir, butun insoniyatning orzusi va barcha xalqlarning maqsadidir.



Dunyoga kelishdan muddao “yo‘lini qilib kun kechirish, eb ichish nasl qoldirib o‘tish” kabi biologik ehtiyojlarni qondirib yashashdangina iborat bo‘lmay aksincha, bular vosita, maqsad ruhan pog‘onaga chiqish, Ollohning huzurida loyiq bo‘lishdir. Ruhan poklanish va jisman poklanish o‘zaro uzviy bog‘langan hamda uyg‘unlashgan tushunchalar bo‘lib, qalbi pok insonlar albatta jisman ham pok bo‘lishni anglatadi.

Jamiyat insoniylikka munosib bo‘lgan poklik va adolatda yashashi uchun Olloh mast qiluvchi ichimliklarni ichish, o‘g‘irlilik, poraxo‘rlik va sudxo‘rlik, nohaq odam o‘ldirish, buzuqlik, qimorbozlik kabi ishlarni harom qilgan.

O‘z mohiyatni anglagan komil yoshlar bunday nomunosib ishlardan hamisha pok bo‘lganlar, sog‘lom turmush tarzida yashash ularga xos xususiyat bo‘lgan. Olloh huzuriga intilish komillikning kaliti bo‘lsa, sog‘lom va pokiza turmush tarzida hayot kechirish shu maqsadga olib boradigan ravon yo‘ldir.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Roziqov K.X. Ekoliya va atrof-muhit muhofazasi haqida yetti saboq. T. 2004-y. 3-b.
2. Solixo‘jayev S. Bolalarda shaxsiy gigiyena ko‘nikmalarining shakllanishi. T. Ibn Sino. 1993-y. 76-b.
3. To‘xtayev A.S. Rang – barang tabiat.T. Yozuvchi.2002-y.64-b.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI EKSKURSIYA DARSLARI ORQALI TABIATNI E'ZOZLASHGA O'RGATISH

D.ELMURATOVA,
GuDU o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

Tabiatni kuzatish jarayonida bilish faolligi shakllanadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar, jonli va jonsiz tabiatning o'zaro aloqasi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlari kengayadi. Mazkur maqola ham o'quvchilarning ekskursiya darslari vositasida tabiatni tushunish, atrofdagi tirik organizmlarni bilish va ularni asrab-avaylashga o'rgatish masalalariga bag'ishlanadi.

Tayanch so'zlar: boshlang'ich, tabiat, tabiatshunoslik, ta'lif, o'quvchilar, ekskursiya darslari, dars samaradorligi, ona tabiat, qushlar, o'simliklar, hayvonlar, ekologik ta'lif, axloqiy tushunchalar, tabiatni e'zozlash.

Cognitive activity is formed in the process of observing nature, the understanding of students of elementary grades of natural sciences, the interaction of living and inanimate nature, flora and fauna is expanding. This article also focuses on teaching students to understand nature, living organisms and how to take care of them during excursions.

Key words: elementary, nature, natural sciences, education, students, excursions, lesson productivity, mother nature, birds, plants, animals, environmental education, ethical concepts, respect for nature.

Познавательная деятельность формируется в процессе наблюдения за природой, расширяется понимание учащимися младших классов естественных наук, взаимодействия живой и неживой природы, флоры и фауны. Эта статья также посвящена обучению студентов пониманию природы, живых организмов и тому, как заботиться о них во время экскурсий.

Ключевые слова: элементарный, природа, естественные науки, образование, студенты, экскурсии, результативность урока, матер-природа, птицы, растения, животные, экологическое образование, этические концепции, уважение к природе.

Insomiyat tarixidan ma'lumki, sog'lom jamiyatni faqatgina sog'lom muhit yaratadi. O'zbekistonning porloq kelajagini ta'minlash uchun qabul qilingan «Ta'lif to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining boshlang'ich ta'lif oldiga qo'ygan vazifalaridan biri o'quvchilarni atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishdir. Bunday mas'uliyatlari va murakkab vazifani muvaffaqiyatli hal etish o'qituvchi va murabbiylardan o'z sohasi bo'yicha chuqur bilimga, yuksak ekologik madaniyatga ega bo'lishini, tinimsiz izlanish, ijodkor bo'lishni va hozirgi yangi pedagogik axborot texnologiyalari



asosida mashg'ulotlarni o'tkazishni talab qiladi. Yuqoridagi sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchigina ekologik ta'limning nazariy bilim va malakasini chuqur egallagan, tabiatdagi jarayonlarning sir-asrorini biladigan, uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ahamiyatini tushunadigan, aynan tabiatga nisbatan ongi munosabatda bo'ladigan barkamol shaxsni tarbiyalashi mumkin. Bunda o'qituvchi uchun turli qo'llanmalar, ommaviy axborot vositalari, darsliklar, sinfdan tashqari tadbirdilar muhim manba hisoblanadi.

Atrofimizdag'i tabiatni o'rganishda o'quv ekskursiyalari katta ahamiyatga ega. Ekskursiya darslari o'quv ishlarini tashkil etishning shakli sifatida o'quvchilarni ekologik tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Tabiatni kuzatish jarayonida bilish faolligi shakllanadi, o'quvchilarning tabiiy fanlar, jonli va jonsiz tabiatning o'zaro aloqasi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqidagi tasavvurlari kengayadi.

